



“OLDIMIZDA MINTAQAMIZNI NAFAQAT BARQAROR, BALKI FAROVON QILISH UCHUN TARIXIY IMKONIYAT TURIBDI”



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Samarqanddagi “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti oldidan “Euronews”ga bergan eksklyuziv intervyusi

— Keyingi yillarda dunyo shiddat bilan o‘zgarmog‘da: geosiyosiy beqarorlik, iqtisodiy xatarlarning o‘shishi, iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq muammolar — bularning barchasi xalqaro hamkorlikning yangi formatlarini taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, Samarqand shahridagi “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” sammiti mintaqalarimiz o‘rtasidagi munosabatlarda burilish nuqtasi sifatida ko‘rinmoqda. Nima uchun aynan shu payt o‘zaro hamkorlik yangi bosqichga chiqmoqda?



mamlakatlari esa mintaqaviy strategik sheriklarga aylandi.

Bugun Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo va investitsiya aloqalarini izchil rivojlantirmoqda. Oxirgi yetti yilda Markaziy Osiyo mamlakatlarining YI bilan savdo aylanmasi to‘rt barobar oshib, 54 milliard yevroni tashkil etdi.

Biz Yevropa biznesining O‘zbekiston va mintaqadagi boshqa mamlakatlar bilan savdo va investitsiyaviy hamkorlik qilish imkoniyatlariga qiziqishi kuchayib borayotganini mamnuniyat bilan kuzatmoqdamiz.



Mintaqamizda kuzatilayotgan ijobiy jarayonlar tufayli Markaziy Osiyo qudratli va yetakchi davlatlarning Sharq va G‘arb, Shimol va Janubni bog‘lovchi yo‘llar tutashgan geosiyosiy chorrahadagi ishonchli hamkoriga aylantirmoqda. Bu “Markaziy Osiyo plus” formatlarida o‘z ifodasini topmoqda. Ular ochiq muloqotni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilib, barcha tomonlarning o‘zaro manfaatli hamkorligi uchun qulay imkoniyat yaratmoqda.

Bunday sharoitda Samarqand sammitida Yevropa Ittifoqi va mintaqamiz davlatlari o‘rtasida strategik sheriklik yo‘lga qo‘yilishi mintaqalararo hamkorlik va o‘zaro bog‘liqlikning rivojlanishida yangi yo‘nalishlar ochadi.

— Sammitni o‘tkazish joyi sifatida Samarqand shahri tanlanishining sababi haqida batafsil so‘zlab bersangiz. Samarqand muloqot va imkoniyatlar nuqtayi nazaridan qanday ramziy ahamiyatga ega?

— Samarqand — asrlar davomida savdo, ilm-fan va diplomatiya markazi bo‘lib kelgan shahardir. Uning ulug‘vorligi turli madaniyatlar, xalqlar va g‘oyalarni birlashtira olganida. Bugun u yana Yevropa va Markaziy Osiyo zamonamizning asosiy muammolarini muhokama qilishi mumkin bo‘lgan muloqot maydoniga aylanmoqda.

Samarqand Markaziy, Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq hududida istiqomat qilgan xalqlarning ko‘p asrlik xalqaro munosabatlari tarixida alohida o‘ringa ega. Olti asrdan ortiq vaqt ilgari ayni shu yerdan Movarounnahr hukmdori Amir Temur Yevropa monarx-lari bilan erkin va xavfsiz savdoni ta‘minlash maqsadida faol aloqalar o‘rnatgan edi.

Bugungi kunda Samarqand xalqaro hayotdagi o‘ziga xos o‘rni tiklamoqda hamda mamlakatimizning tarixiy siyosiy va diplomatik merosini asrab-avaylab, uni yangi, yanada keng mazmun bilan boyitmoqda.

Tarixan shakllangan tushunchaga ko‘ra, Samarqanddan turib qaralganda, dunyo tarqoq emas, balki yaxlit va bo‘linmas bo‘lib ko‘rinadi. “Samarqand ruhi” degan noyob fenomenning mazmuni ham asli shunda mujassam bo‘lib, u xalqaro hamkorlikning prinsipial jihatdan yangi formatini shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON BILAN XITOI O‘RTASIDAGI KO‘P QIRRALI HAMKORLIK YUQORI BAHOLANDI



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 1-aprel kuni Xitoy Xalq Respublikasi Kommunistik partiyasi Markaziy qo‘mitasi Xalqaro aloqalar bo‘limi mudiri Lyu Szyanchao boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Xitoy Raisi Si Szinpingning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Uchrashuvda oliy darajada erishilgan kelishuvlarga muvofiq O‘zbekiston bilan Xitoy o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlik va amaliy sheriklikni yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Keyingi yillarda O‘zbekiston — Xitoy do‘stlik va barcha sharoitlarda har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarida yuksak darajaga erishilgan alohida mamnuniyat bilan qayd etildi.

O‘zaro tovar ayirboshlash va investitsiyalar hajmi barqaror oshib bormoqda, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida yetakchi kompaniyalar ishtirokidagi qo‘shma loyiha va korxonalar soni ko‘paymoqda.

“Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘lini qurish loyihasi bo‘yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Faol hududlararo aloqalar va madaniy-gumanitar almashinuv yuqori baholandi. Joriy yilda navbatdagi Hududlar forumi va Ta‘lim forumi bo‘lib o‘tadi.

Parlamentlararo va partiyalararo hamkorlikni, ayniqsa, kambag‘allikni qisqartirish, korrupsiyaga qarshi kurashish, raqamlashtirish va sanoatlashtirishni jadallashtirish kabi sohalarida yanada kengaytirish zarurligiga alohida e‘tibor qaratildi.

Oliy va professional ta‘lim sohasida hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, mamlakatimizda Xitoyning yetakchi oliy ta‘lim muassasalari filiallarini ochish muhimligi qayd etildi.

O‘ZA

FAOL MULOQOTLAR MUNOSABATLARNI YANADA RIVOJLANTIRISHGA XIZMAT QILADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Eron Islom Respublikasi Prezidenti Mas‘ud Pezeshkiyon 1-aprel kuni bo‘lib o‘tgan telefon orqali muloqotda bir-birlarini va mamlakatlarimizning do‘st xalqlarini bahor ayyomi Navro‘z va muborak Ramazon hayiti — Iyd al-Fitr bilan samimiy qutlab, tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tiladilar.

Qabul qilingan “yo‘l xaritasi” asosida ko‘p qirrali O‘zbekiston — Eron munosabatlarini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari atroficha ko‘rib chiqildi.

Turli darajalarda faol muloqotlar va tashriflar davom etayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

O‘zaro savdo va yuk tashish ko‘rsatkichlari, qo‘shma korxonalar soni oshmoqda, poytaxtlar o‘rtasida muntazam

to‘g‘ridan to‘g‘ri aviaqatnovlar amalga oshirilmoqda, ishbirolmonlik va madaniy-gumanitar almashinuv kengaymoqda.

Kimyo va neft-kimyo tarmoqlari, to‘qimachilik va oziq-ovqat sanoati, qishloq xo‘jaligi, qurilish materiallari tarmog‘i va boshqa yo‘nalishlardagi kooperatsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash va jadal amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Tehron shahrida o‘tkazilishi rejalashtirilgan Hukumatlararo komissiya yig‘ilishi, biznes forumi va sanoat ko‘rgazmasini samarali tashkil etish muhimligi ta‘kidlandi.

O‘zbekiston va Eron yetakchilari xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

O‘ZA

O‘ZBEKISTONDA “MARKAZIY OSIYO – YEVROPA ITTIFOQI” BIRINCHI SAMMITI BO‘LIB O‘TADI

3-4-aprel kunlari Samarqand shahrida

“Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti bo‘lib o‘tadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tadigan sammit ishida Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta, Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Layen, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov ishtirok etadi.

“Kelajakka sarmoya kiritish” shiori ostida o‘tkaziladigan tadbirda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda Yevropa investitsiya banki rahbarlari ham ishtirok etishi kutilmoqda.

Kun tartibiga muvofiq, Markaziy Osiyo davlatlari va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlar va amaliy hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari ko‘rib chiqiladi.

Investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish va tovar ayirboshlashni ko‘paytirish, innovatsiyalar, “yashil” energetika, tog‘kon, qishloq xo‘jaligi, transport, logistika va raqamlashtirish sohalarida qo‘shma dastur va kooperatsiya loyihalarini ilgari surish, madaniyat, turizm, fan, ta‘lim va boshqa ustuvor yo‘nalishlarda faol almashinuvlarni davom ettirish masalalari diqqat markazida bo‘ladi.

Delegatsiyalar rahbarlari xalqaro va mintaqaviy siyosatning dolzarb jihatlarini yuzasidan ham fikr almashdilar.

Dasturga muvofiq, Markaziy Osiyo davlatlari yetakchilari va Yevropa Ittifoqining asosiy institutlari rahbarlari 4-aprel kuni o‘z ishini boshlaydigan Samarqand xalqaro iqlim forumining yalpi majlisida ishtirok etadi.

Bundan tashqari, sammit doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xorijiy delegatsiyalar rahbarlari bilan qator ikki tomonlama uchrashuvlar o‘tkazishi ko‘zda tutilgan.

O‘ZA



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

“OLDIMIZDA MINTAQAMIZNI NAFAQAT BARQAROR, BALKI FAROVON QILISH UCHUN TARIXIY IMKONIYAT TURIBDI”

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Samarqanddagi “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti oldidan “Euronews”ga bergan eksklyuziv intervyusi

Boshlanishi 1-betda

— *Keyingi yillarda mintaqada yuz bergan asosiy o‘zgarishlarni qanday tavsiflagan bo‘lardingiz, Markaziy Osiyo beshligida O‘zbekiston raisligi davrida qaysi ustuvor yo‘nalishlarga e‘tibor qaratasiz?*

— Avvalo, shuni alohida ta’kidlashni istardimki, Markaziy Osiyo O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Bu bir qator omillar bilan bog‘liq. Birinchidan, bugungi dunyo siyosati xaritasiga nazar tashlasak, qurolli nizolar, ziddiyatlar va zo‘ravonlik avj olayotgan holatlarning aksariyati aynan qo‘shni davlatlar o‘rtasida yuz berayotganini ko‘ramiz. Bu holat Yaqin Sharq, postsovet makoni, Janubiy Osiyo, Afrika va boshqa mintaqalar uchun ham xos.

Afsuski, Markaziy Osiyo ham bunday holatlardan mustasno bo‘lmagan. Turli davrlarda bu yerda qurolli to‘qnashuvlar sodir bo‘lgan, chegara masalalari, suv-energetika muammolari, transport va aloqa sohasidagi murakkabliklar, xavfsizlikka oid tahdidlar vaziyatni og‘irlashtirgan. Bu esa uzoq davom eta olmasdi. Ixtiloflar kuchaydi, kelishmovchiliklar chuqurlashdi va yuzaga kelayotgan murakkab vaziyat mintaqaning xavfsizligiga jiddiy tahdid sola boshladi.

Biz ana shunday real holatni anglab yetib, strategik qaror qabul qildik: Markaziy Osiyoda konstruktiv, yaxshi qo‘shnichilikka asoslangan va o‘zaro manfaatli munosabatlarni bosqichma-bosqich barpo etish. Bu yondashuvning zamirida o‘zaro ishonch va hurmat, umumiy manfaatlarni hisobga olish va tan olish yotadi.

So‘nggi yillarda Markaziy Osiyo tubdan o‘zgardi, yangi qiyofa kasb etdi — konstruktiv muloqot, ishonch va har tomonlama hamkorlik maydoniga aylandi. Bu esa mamlakatlarimiz yetakchilarining umumiy siyosiy irodasi tufayli amalga oshdi. Bugun biz yo‘narayotgan o‘zaro qaytmasligi haqida ishonch bilan ayta olamiz.



2017-yilda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida O‘zbekiston Maslahat uchrashuvlarini o‘tkazish tashabbusi bilan chiqqanida, biz oddiy, biroq muhim g‘oyadan kelib chiqqan edik: agar biz o‘zaro ishonch va ochiq muloqotni o‘zimiz boshlamasak, hech qanday tashqi hamkorlar mintaqamizda tinchlik, barqarorlik va taraqqiyotni ta‘minlab berolmaydi. Bu jarayon o‘z samarasini ko‘rsatdi. Bugun eng murakkab masalalarni muzokaralar orqali hal etmoqdamiz, qo‘shma tashabbuslarni muvofiqlashtiryapmiz va oldinga dadil qadam tashlayapmiz.

Joriy yilda Toshkentda yettinchi Maslahat uchrashuvi bo‘lib o‘tadi. Bunday yig‘ilishlarda biz nafaqat kun tartibini muhokama qilyapmiz, fikr almashyapmiz, balki mintaqa qiyofasini o‘zgartiruvchi aniq qarorlarni qabul qilmoqdamiz. Yaqin oradagi yorqin misol — Qirg‘iziston va Tojikiston o‘rtasida davlat chegarasini delimitatsiya qilish masalasining uzil-kesil hal etilishi bo‘ldi. Bu — tomonlarning yillar davomidagi sa‘y-harakatlari tufayli erishilgan muvaffaqiyatdir.

Savdo aloqalarini rag‘batlantirish uchun chegaraoldi savdo hududlari tashkil etilmoqda, qo‘shma investitsiya

jang‘armalari ishga tushirilyapti, yirik infratuzilma va sanoat loyihalari amalga oshirilmoqda.

Markaziy Osiyo global transport zanjirlarining muhim bo‘g‘iniga aylanmoqda. Biz Transkaspий va Transafg‘on transport yo‘laklarini faol rivojlantiryapmiz — bu mamlakatlarimizning jahon bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Shu tarzda, Markaziy Osiyo endi tarixning chetida emas, balki o‘z strategik kun tartibini shakllantirayotgan, jadal rivojlanayotgan mintaqaga aylanmoqda. Siyosiy iroda, yuqori darajadagi o‘zaro ishonch va qo‘shma iqtisodiy tashabbuslar mintaqada barqaror rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi.

Markaziy Osiyo beshligida O‘zbekistonning raisligi davrida biz quyidagi uchta ustuvor yo‘nalishga alohida e‘tibor qaratamiz: mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash, iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish va ekologik barqarorlikni ta‘minlash.

Oldimizda mintaqamizni nafaqat barqaror, balki farovon qilish uchun tarixiy imkoniyat turibdi. Ishonch bilan ayta olamanki, biz bu salohiyatni birgalikda ro‘yobga chiqarishga qodirmiz.

— *O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan qanday islohotlar Yevropa Ittifoqi bilan iqtisodiy hamkorlikni rag‘batlantirishga xizmat qilmoqda va Markaziy Osiyo bilan aloqalarni yangi bosqichga olib chiqish uchun YI tomonidan qanday choralar ko‘rilishi mumkin?*

— O‘zbekistonda izchillik bilan qulay biznes muhitini yaratmoqdamiz, bozor institutlarini rivojlantirmoqdamiz va investitsiyaviy muhitni yaxshilayapmiz. Muhim qadamlardan biri xorijiy investorlar uchun “yagona darcha” tizimi joriy etilgan, valyuta bozori liberalashtirilgan, biznes uchun soliq yuki kamaytirilgani bo‘ldi.

Natijada mamlakatimiz va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikda ijoiy bir sur‘at kuzatilmoqda. 2024-yilda O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi davlatlari o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 6,4 milliard dollarga yetdi, bu o‘tgan yilga nisbatan 5,2 foizga ko‘pdir. Mamlakatimizda Yevropa kapitali ishtirokidagi 1 mingdan ortiq korxona faoliyat yuritmoqda, investitsiya loyihalari hajmi esa 30 milliard yevroga yetgan. Yevropa Ittifoqi bilan Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitimning imzolanishi savdo-investitsiya aloqalarini yanada chuqurlashtirish uchun yangi imkoniyatlar ochishiga ishonamiz.

Biz YI bozoriga yuqori sifati, ekologik toza va Yevropa standartlariga javob beradigan mahsulotlarni ko‘proq yetkazib berishga tayyormiz. Bugungi kunda samarali transport-logistika yo‘laklarini rivojlantirish ahamiyati ortib bormoqda va Markaziy Osiyo Yevropa bilan Osiyo o‘rtasidagi shunchaki “ko‘prik” emas, balki global iqtisodiy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylanishi mumkin.

Shu ma’noda, biz Yevropa Ittifoqining “Global darvoza” strategiyasini mintaqadagi asosiy transport loyihalari bilan uyg‘unlashtirishni, Transkaspий transport yo‘lagini ilgari surish bo‘yicha “Harakatlar rejası”ni birgalikda ishlab chiqishni taklif etamiz. Bu investitsiyalar ortishi, infratuzilma rivoji va innovatsion texnologiyalarni joriy etishga yangi sur‘at bag‘ishlaydi.

Iqtisodiy bog‘liqlikni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish uchun savdo tartib-taomillarini yanada soddalashtirish, Markaziy Osiyo mahsulotlarining Yevropa bozoriga kirish imkoniyatini yaxshilash, texnik standartlar va sertifikatlarni uyg‘unlashtirish zarur. Shu bilan birga, infratuzilma loyihalarini amalga oshirish, raqamli iqtisodiyot va innovatsion

hamkorlikni rivojlantirish jarayoniga Yevropa biznesini faol jalb qilish muhim ahamiyatga ega.

Biz, shuningdek, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Yevropa investitsiya banki va boshqa xalqaro oliya institutlari orqali oliyaviy ko‘mak mexanizmlarini faollashtirishni qo‘llab-quvvatlaymiz. Yevropalik hamkorlar ishtirokida kichik va o‘rta biznes rivoji uchun qulay sharoitlar yaratilishi mintaqa iqtisodiy barqarorligi va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

— *Markaziy Osiyo — energiya resurslariga boy va qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish uchun ulkan salohiyatga ega bo‘lgan kam sonli mintaqalardan biri hisoblanadi. Qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanish bo‘yicha keyingi tendensiyalar hisobga olinsa, mintaqangiz Yevropaning energetik barqarorligini ta‘minlashda qanday o‘rin tutishi mumkin?*

— Markaziy Osiyo nafaqat energiya resurslarini barqaror yetkazib berishni ta‘minlay oladigan, balki uglerodni qisqartirish bo‘yicha global salohiyatga ham katta hissa qo‘sha oladigan ishonchli hamkorga aylanishi mumkin.

Markaziy Osiyo mamlakatlari ishtirokida amalga oshirilayotgan Kaspiy va Qora dengiz orqali Yevropaga “yashil strategik yo‘lak” barpo etish loyihasida hamkorlik uchun ulkan salohiyat mavjud. Ushbu loyihaning amalga oshirilishi o‘zaro manfaatli energetik bog‘liqlikning mustahkam asosini yaratadi.

Qayta tiklanuvchi energetika sohasida hamkorlik qilish uchun muhim institutsional platforma sifatida Toza energetika bo‘yicha Markaziy Osiyo — YI sherikligini tashkil etish mumkin. Bu vodorod va ammiak kabi “yashil” yoqilg‘i, shuningdek, bioyoqilg‘i ishlab chiqarish va qazilma yoqilg‘i o‘rniga ulardan keng foydalanish bo‘yicha hamkorlikni yo‘lga qo‘yish imkonini beradi.

Ayni paytda O‘zbekiston va mintaqadagi boshqa davlatlar qayta tiklanuvchi energetika salohiyatini faol kengaytirmoqda. “Yashil” energetika va iqlim sohasidagi loyihalarni amalga oshirish Markaziy Osiyoda “uglerod kreditlari” bozorini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu mexanizm korxonalariga ekologik toza texnologiyalarga investitsiyalar jalb qilish imkonini beradi, shuningdek, uglerod kvotalari savdosi sohasida xalqaro hamkorlik platformasiga aylanadi.

Masalan, faoliyat yuritayotgan 14 ta yangi quyosh va shamol elektr stansiyalariga qo‘shimcha ravishda umumiy quvvati 24 ming megavatt bo‘lgan 50 dan ortiq shunday loyihani amalga oshirish niyatimiz bor.

Yaqin besh yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 54 foizga yetkazishni rejalashtirganimiz. Bu issiqxona gazlari chiqishini qariyb 16 million tonnaga qisqartirish imkonini beradi va O‘zbekiston Parij kelishuvi doirasida issiqxona gazlari chiqindisini 35 foizga kamaytirish bo‘yicha o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarning muddatidan oldin bajarilishiga imkon beradi.

Yana bir muhim yo‘nalish energetika tizimlarini modernizatsiya qilish bo‘lib, bu ularning samaradorligini oshiradi va uglerod izini kamaytirishga xizmat qiladi.

— *Bo‘lajak sammitda xavfsizlik masalalari muhokama qilinishi istiqbollarni qanday baholaysiz? Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi hamkorlikning qaysi sohalari Siz uchun alohida ahamiyatga ega?*

— Biz xalqaro munosabatlar tizimi-ning chuqur transformatsiyasiga guvoh

bo‘lyapmiz. Dunyoda shunday keng ko‘lamli o‘zgarishlar ro‘y bermoqdaki, ularning oqibatlarini hozircha aniq bashorat qilish mushkul.

Hududiy xavfsizlikni ta‘minlash Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun har doim ustuvor yo‘nalish bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qolmoqda. Shu sababli, 2023-yilda biz Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi davlatlari o‘rtasida bu sohada hamkorlikning yangi kun tartibini ekspertlar muhokamasiga olib chiqish vazifasini qo‘yidik.

Biz yaxshi tushunamizki, bizning mintaqamiz ham, Yevropa Ittifoqi ham xavfsizlik sohasida, jumladan, terrorizm, ekstremizm va transmilliy jinoyatchilikka, gijohvand moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurash masalalarida umumiy tahdid va xatarlarga duch kelmoqda.

Shu nuqtaiy nazardan, Yevropa Ittifoqi bilan xavfsizlik sohasidagi hamkorlik o‘zaro munosabatlarimizning asosiy yo‘nalishlaridan biridir.

Bugungi voqeiliklarni inobatga olgan holda, faqat mavjud dasturlar doirasidagi hamkorlikni davom ettirish bilan cheklanib qolmay, kiberxavflar va ekstremizmga qarshi kurashishga qaratilgan yangi tashabbuslarni ishlab chiqish ham muhim deb hisoblaymiz.

— *Afg‘oniston O‘zbekiston tashqi siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ko‘plab davlatlar muvaqqat hukumat bilan hamkorlik qilish hamda bu mamlakatni mintaqaviy va xalqaro hamkorlik jarayonlariga jalb etishdan o‘zini tiyib turgan bir paytda O‘zbekiston janubiy qo‘shnisi bilan faol aloqalarni davom ettirmoqda. O‘zbekistonning Afg‘onistonga bunday yondashuvining sabablari nimada, bu masalada davlatlarimiz o‘rtasida jadal hamkorlikni davom ettirish istiqbollari qanday?*

— O‘zbekistonning Afg‘onistonga nisbatan yondashuvi har doim pragmatik va uzoq muddatli strategik tamoyillarga asoslanib kelgan. Biz hech qachon qo‘shnimizdan yuz o‘girmaganmiz, u bilan aloqalarni uzmaganimiz. Biz qo‘shni davlatlar, jumladan, uning yaqin va eng muhim hamkori sifatida O‘zbekiston bilan konstruktiv hamkorlik qilmasdan Afg‘onistonnı rivojlantirish imkonisiz, degan fikrga doim ishonib kelganimiz.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, Afg‘onistonga nisbatan olib borayotgan siyosatimizni qo‘llab-quvvatlamaganlarning ko‘pchiligi bugun uning to‘g‘riligi, muqobili yo‘qligini tan olishga majbur bo‘lishmoqda. Afg‘onistondagi avvalgi hokimiyatni saqlab qololmasligiga amin edik. Bu sabablar qatorida avvalgi hokimiyatning mamlakat hududini to‘liq nazorat qilishga qobilisizligi, muxolifat bilan muloqotga tayyor bo‘lmagani, inklyuziv hukumatni shakllantirishga intilmagani va davlat boshqaruvining barcha darajalarida korrupsiya avj olganini keltirish mumkin.

Hozirgi rahbariyat Afg‘onistondagi vaziyatni barqarorlashtirishga, o‘z resurslarini aeroportlar, ichki temir yo‘l tarmoqlari, suv-energetika infratuzilmasini rivojlantirishga va ko‘knor maydonlarini qisqartirishga yo‘naltirishga muvaffaq bo‘ldi. BMT ma‘lumotlariga ko‘ra, “Tolibon” 2023-yilda gijohvand moddalar savdosini taqiqlaganidan so‘ng, Afg‘onistonda ko‘knori yetishtiriladigan yerlar 95 foizga kamaygan. Afg‘onistonda ko‘knoridan xoli kelajak barpo etish maqsadida qishloq aholisiga yordam ko‘rsatilmogda, qishloq xo‘jaligining muqobili yo‘nalishlari rivojlantirilyapti.

Bugungi sharoitda biz Afg‘onistonga strategik imkoniyatlar nuqtai nazaridan qarash zarur deb bilamiz. Ushbu mamlakatni xalqaro iqtisodiy jarayonlarga jalb etish, xususan, uning hududida infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish juda muhim.

Shu ma’noda, biz Afg‘onistonga nafaqat mavjud inqirozdan chiqish, balki uzoq muddatli rivojlanish imkonini beradigan ijoiy kun tartibi va tashabbuslarni ilgari surish uchun Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro hamkorlar bilan birgalikda ishlashga tayyormiz. Hozirda birinchi galdagi vazifa — Afg‘onistonga ta‘lim sohasida yordam berishni davom ettirish deb hisoblaymiz.

Ishonchim komil, Afg‘onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish va mamlakatni tiklash Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi davlatlarining umumiy manfaatlariga javob beradi.

— *Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi qanday qilib iqlim xavflariga birgalikda qarshi turishi mumkin, bu sohada hamkorlik uchun qanday imkoniyatlar mavjud?*

— Iqlim o‘zgarishi — bu endi inkor etib bo‘lmaydigan xatar. Markaziy Osiyo qurg‘oqchilik, muzliklar erishi va suv tanqisligi bilan yuzma-yuz kelayotgan bo‘lsa, Yevropa anomal issiqlik, yong‘inlar va ekotizimlar o‘zgarishi bilan to‘qnash kelmoqda.

Markaziy Osiyo iqlim o‘zgarishiga nisbatan eng sezgir hududlardan biri sifatida o‘z mas‘uliyatini to‘liq anglaydi va Yevropa bilan uzoq muddatli yechimlar ustida hamkorlik qilishga tayyor.

Biz uchun so‘zsiz ustuvor yo‘nalish — bu Markaziy Osiyoda “yashil” kun tartibini ilgari surishdir.

Samarqand sammiti doirasida biz “yashil” rivojlanish bo‘yicha mintaqaviy konsepsiya loyihasini taqdim etishni rejalashtirganimiz. Unda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va “yashil” texnologiyalarni joriy etish sohasida samarali mintaqaviy hamkorlikning mustahkam asosini yaratish ko‘zda tutilgan.

Biz “YI — Markaziy Osiyo yashil sherikligi” dasturini rivojlantirishni taklif etamiz. Uning doirasida qayta tiklanadigan energiya manbalari, ekotizimlarni tiklash va iqlimni raqamli monitoring qilish bo‘yicha loyihalarni oliyallashtirishda kuchlarimizni birlashtirishimiz mumkin.

Suv resurslarini tejash sohasidagi sa‘y-harakatlarni birlashtirish muhim deb hisoblaymiz.

Bu borada Yevropa Ittifoqi bilan irrigatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilishdan tortib muzliklarni birgalikda kuzatish va ilg‘or suv tejoyvchi texnologiyalarni joriy etishgacha bo‘lgan yo‘nalishlarda hamkorlik uchun katta imkoniyatlarni ko‘ryapmiz.

YI bilan hamkorlikni kengaytirishdan, xususan, davlat-xususiy sheriklik sohasida Yevropa tajribasidan foydalanishdan umidimiz katta.

Ustuvor yo‘nalishlardan yana biri — ekotizimlar va bioxilma-xillikni tiklashdir. Tanazzulga uchragan yerlarni, shu jumladan, Orolbo‘yi hududini ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli dastur — “Markaziy Osiyoning yashil belbog‘i” loyihasini allaqachon boshlaganimiz.

Bu borada Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik qilish uchun ulkan salohiyat mavjud.

Biz ekologik sohada ta‘lim tizimini takomillashtirish va ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishga ham ustuvor e‘tibor qaratyapmiz. O‘tgan yili mintaqamizda birinchi “Yashil” universitetni ochdik, bu ta‘lim maskani qo‘shma tadqiqotlar o‘tkazish va innovatsiyalarni joriy etish uchun samarali maydon bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

— *Bo‘lajak oliy darajadagi uchrashuvdan nimalar kutapsiz? Sammit yakunida qanday natijalarga erishilishini istardingiz?*

— Bo‘lajak sammit haqiqatan tarixiy ahamiyat kasb etadi, chunki birinchi marta Markaziy Osiyoning beshta mamlakati va Yevropa Ittifoqi yetakchilari bir joyda to‘planadi.

Biz bu sammit Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishda yangi sahifa bo‘lishini kutamiz. Keyingi yillarda hamkorligimiz sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi.

Siyosiy muloqot yanada chuqurlashadi, hamkorligimizga yanada tizimli tus beradigan, uni uzoq muddatli maqsadlarga yo‘naltiradigan yangi mexanizmlar ishlab chiqiladi deb umid qilamiz. Mintaqalararo, ayniqsa, iqtisodiyot, savdo, energetika va transport sohaslaridagi hamkorlikni muhokama qilish sammit kun tartibidagi muhim masalalardan biri bo‘ladi.



Samarqand deklaratsiyasining imzolanishi sammitning asosiy natijalaridan biri bo‘lishi kerak. Bu hujjat tomonlarning strategik sheriklik o‘rnatishga bo‘lgan umumiy intilishini aks ettiradi. Deklaratsiya nafaqat erishilgan kelishuvlarni mustahkamlaydi, balki mintaqalarimiz o‘rtasidagi aloqalarni chuqurlashtirish uchun asos yaratadi. Biz investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish, qo‘shma infratuzilma loyihalarini amalga oshirish, innovatsiyalar va raqamli yechimlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha aniq kelishuvlarga erishishdan umidvormiz.

Albatta, ko‘plab savollarga sammit yakunida javob topiladi. Biroq hozirdan aytish mumkinki, bu uchrashuv Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo o‘rtasida barqaror, o‘zaro manfaatli sheriklikni barpo etish yo‘lidagi muhim qadamga aylanadi. Bu sheriklik umumiy manfaatlar, ishonch va birgalikdagi taraqqiyotga intilishga asoslangan bo‘ladi.

— *Sizda Yevropa yetakchilari va fuqarolariga bitta muhim fikrni yetkazish imkoniyati bo‘lganda, nima degan bo‘lar edingiz?*

— Bugungi imkoniyatdan foydalanib, yevropalik hamkorlarimizga murojaat qilmoqchiman.

Markaziy Osiyo muloqot va hamkorlikni kengaytirishga ochiq. Biz barqaror rivojlanish va xalqlarimizning farovonligini oshirishga xizmat qiladigan, o‘zaro manfaat va ishonchga asoslangan konstruktiv hamkorlik tarafdorimiz.

Biz Yevropa Ittifoqining mintaqa ochiqligini ta‘minlash, uning ravnaqi va subyektligini mustahkamlashga qaratilgan intilishlarimizni qo‘llab-quvvatlayotganini yuksak qadrlaymiz. Ayniqsa, Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyoni barqaror va jadal rivojlanayotgan, barcha manfaatdor tomonlar bilan ochiq va teng huquqli sheriklikka tayyor bo‘lgan mintaqaga aylantirishdek maqsadimizda biz bilan hamfikir ekani juda muhimdir.

Bo‘lajak sammit munosabatlarimizda muhim bosqich bo‘ladi. Samarqanddagi uchrashuv natijalari hamkorligimizni yanada rivojlantirish uchun yangi istiqbollar ochishiga ishonamiz.



O‘zbekiston Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev
31-mart kuni amaliy tashrif
bilan Tojikistonning Xo‘jand
shahrida bo‘ldi.
Oliy darajadagi tadbirlarga
boy dastur doirasida Xo‘jand
shahrida davlatimiz rahbari
Tojikiston Prezidenti
Emomali Rahmon va
Qirg‘iziston Prezidenti Sadir
Japarov bilan uchrashdi.
Shuningdek, tashrif
davomida O‘zbekiston,
Tojikiston va Qirg‘iziston
rahbarlarining qo‘shma
uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.



Bu yil mart oyining so‘nggi kunlari Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari, o‘zaro qondosh-qarindosh, birodar xalqlarimiz taqdirida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy jihatdan tub bulirish yasashga asos bo‘luvchi muhim voqealarga boy bo‘ldi. Binobarin, 29-mart kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev bilan ushbu mamlakatda oliy darajadagi norasmiy uchrashuv o‘tkazgan bo‘lsa, 31-mart kuni Xo‘jand shahrida O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston Prezidentlarining uch tomonlama tarixiy uchrashuvida ishtirok etdi.

Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston temir yo‘li qurilishini jadallashtirishga kelishib oldi.

To‘rtinchi asosiy jihat — amaliy hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari, xususan, bo‘ljak xalqaro tadbirlar kun tartibini puxta tayyorlash va umumiy yondashuvlarni ishlab

Beshinchi asosiy jhati — madaniy hamkorlik va xalqlarimiz do‘stligining yangi davri boshlanmoqda.

Prezidentlar Xo‘jand qal‘asiga tashrif buyurib, tarixiy meros va hunarmandlik namunalari bilan tanishdi. Qo‘shma konsertlar, festivallar va milliy ko‘rgazmalar mustahkam do‘stlik va o‘zaro anglashuvga

XO‘JANDDAGI KELISHUVLAR MINTAQANING BARQAROR RIVOJILANISHI UCHUN YANGI UFQLAR OCHADI

XORIJIY EKSPERT DOIRALARI VAKILLARI O‘ZBEKISTON, TOJIKISTON VA QIRG‘IZISTON PREZIDENTLARINING XO‘JAND SHAHRIDA BO‘LIB O‘TGAN BIRINCHI SAMMITI YAKUNLARI HAQIDA

Xo‘jand sammitida O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘iziston davlat chegaralarining tutash nuqtasi to‘g‘risidagi tarixiy shartnoma imzolandi. Bundan tashqari, yetakchilar uch mamlakat davlat chegaralari tutashgan hududda Do‘stlik stelasini tantanali ravishda ochdilar.

Kuban TAABALDIYEV,
qirg‘izistonlik siyosatchisi,
Olatov xalqaro universiteti
professori:

— Markaziy Osiyoning uchta davlati rahbarlarining Xo‘jand shahrida bo‘lib o‘tgan uchrashuvi mintaqa tarixida burilish nuqtasi bo‘ladi. Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi chegara nizolarining tashqi vositachilar ishtirokisiz deyarli to‘liq hal etilishi zamonaviy dunyoda o‘ziga xos hodisa bo‘lib, bunga dunyoning ko‘plab ekspertlari va hatto siyosatchilari ham e‘tibor qaratmoqda.

Farg‘ona vodiysidagi davlat chegaralariga oid bitim dunyoda eng zich joylashgan hudud sanalgan mintaqa xalqlari o‘rtasida yaxshi qo‘shnichilik va barqaror munosabatlarga yo‘l ochadi. Markaziy Osiyodagi 80 million aholining 20 foizdan ortig‘i Farg‘ona vodiysida, O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘iziston chegaralari tutashgan joyda yashaydi.

Uch davlat yetakchilarining davlat chegaralarining tutashgan nuqtasi to‘g‘risidagi bitimini imzolashi ularning butun mintaqani tinchlik, barqarorlik va o‘zaro hamkorlikda taraqqiyot hududiga aylantirish, Markaziy Osiyoning barcha



davlatlari xavfsizligi va farovonligini mustahkamlashga hissa qo‘shish qat‘iyatini tasdiqlaydi.

Barcha Markaziy Osiyo davlatlarining pozitsiyalari yaqinlashishiga Shavkat Mirziyoyev 2016-yilda O‘zbekiston Prezidenti etib saylanganidan so‘ng asos solindi. 2017-yilda esa Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo mintaqasini O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishi deb atagan edi. “Biz o‘zimizning yaqin qo‘shnilarimiz Turkmaniston, Qozog‘iston, Tojikiston va Qirg‘iziston bilan nisbatan ochiq, do‘stona va pragmatik siyosat yuritishga sodiq qolamiz”, degan edi O‘zbekiston Prezidenti.

O‘zbekiston yetakchisining mazkur muhim islohoti samarasi o‘laroq,

Ushbu yodgorlik qardosh mamlakatlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik, ishonch va strategik sheriklik munosabatlari mustahkamlanib borayotganining yangi ramzi bo‘ladi.

Uch davlat chegaralarining tutash nuqtasi to‘g‘risidagi tarixiy shartnoma imzolangani xalqaro maydonda ham yuksak e‘tirof

etilmoqda. Xususan, xorijiy ekspertlar O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi chegara muammosiga yakuniy nuqta qo‘yilganini olqishlamoqda. Shuningdek, ular ushbu jarayonda O‘zbekiston Prezidenti sa‘y-harakatlarini va mintaqaviy tashabbuslarini alohida e‘tirof etayotir.

mintaqa davlatlarining Markaziy Osiyodagi tashqi siyosatida ijobiy siljishlar kuzatildi. Marqelar yaqinlashuvi jarayoni Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari tomonidan ham tasdiqlanib, Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil etilgan hamda har yili o‘tkaziladigan oliy darajadagi Maslahat uchrashuvi mintaqaviy va hatto jahon miqyosida muhim siyosiy voqeaga aylandi.

Sammit oldidan Qirg‘iziston va Tojikiston o‘rtasidagi chegaradagi kelishmovchiliklar muvaffaqiyatli va adolatli tarzda hal qilindi. Bu muzokaralar O‘zbekistonda ham 2022-yilda Samarqanda bo‘lib o‘tgan sammit chog‘ida boshlangan edi. Keyin ikki davlat rahbarlari Emomali Rahmon va Sadir Japarov davom etayotgan chegara mojarosi fonida tezda alohida uchrashuv o‘tkazib, to‘qnashuvlarni to‘xtatish, chegaradan qo‘shnilarni olib chiqish va chegara bo‘yicha to‘planib qolgan barcha kelishmovchiliklarni tezroq hal etish bo‘yicha hukumat darajasida yanada mazmunli muzokaralarni boshlash bo‘yicha kelishuvga erishdilar.

Ikki yil davomida ekspert va mutaxassislar ishtirokidagi qizg‘in muzokaralar natijasida tomonlar ikki davlat chegarasidagi uzunligi 1000 kilometrdan ortiq bo‘lgan barcha

bahsli hududlarni kelishib olishga muvaffaq bo‘ldi. 2025-yil 13-mart kuni davlat rahbarlari Qirg‘iziston va Tojikiston o‘rtasidagi davlat chegarasi to‘g‘risidagi bitimini imzoladilar. Ikki davlat rahbarlari fikricha, hujjat uzoq muddatli hududiy bahslarga chek qo‘ydi va nafaqat ikki davlat, balki butun mintaqa munosabatlarida yangi bosqichni ochdi.

Uch mamlakat Prezidentlari tomonidan O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi chegaralar tutashgan nuqtasi hududi to‘g‘risidagi bitim imzolaniishi nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida ham keng istiqbollarni ochib, mintaqa xalqlarining yaqinlashishi, turmush darajasini yuksaltirish, bir-biridan xabardor bo‘lishlari uchun sharoit yaratadi.

Xalqaro miqyosda imzolangan mazkur bitim zamonaviy, toбора murakkablashib borayotgan bugungi dunyoda Markaziy Osiyo davlatlari o‘zlarini mustaqil ravishda, hech qanday tashqi kuchlar ishtirokisiz eng murakkab mintaqaviy muammolarni o‘z ichida hal etishga qodir bo‘lgan darajaga erishganiga yorqin misoldir. Bu, shuningdek, Markaziy Osiyoning dunyodagi o‘zini o‘zi ta‘minlovchi va barqaror mintaqa sifatidagi nufuzi ortib borayotganidan dalolatdir.

kapitalini bosqichma-bosqich oshirish yangi ish o‘rinlari yaratish va hudud raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

To‘runchidan, mamlakatlar o‘rtasidagi transport aloqalarini rivojlantirish, jumladan, aviareyslar sonini oshirish va yangi avtobus yo‘nalishlarini ishga tushirish xalqlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash va turizmini rivojlantirishda asqatadi. Nihoyat, “yashil” energiya va transport sohasidagi yirik mintaqaviy loyihalar, shuningdek, suv va ekologiya sohasidagi dasturlarni ilgari surish mintaqaning barqaror rivojlanishi va ekologik muammolarni hal etishda muhim ahamiyatga ega.

Muxtasar aytganda, O‘zbekiston Prezidentining Tojikistonga tashrifi yakunlari uch davlatning mintaqaviy integratsiya va barqaror rivojlanish va farovonlik uchun qulay muhit yaratishga intilishidan dalolat beradi.

Li YUNXUEI,
Xitoy Ijtimoiy fanlar akademiyasi Rossiya,
Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo instituti
katta ilmiy xodimi:

— O‘zbekiston Prezidentining Xo‘jandga tashrifi, Tojikiston va Qirg‘iziston rahbarlari bilan uch tomonlama uchrashuvi mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash va Markaziy Osiyoda barqarorlikni ta‘minlashda muhim bosqich bo‘ldi. Do‘stlik stelasini ochilishi uch qardosh davlat o‘rtasidagi yaxshi qo‘shnichilik, ishonch va strategik sheriklik munosabatlari mustahkamlanib borayotgani ramzidir.

Davlat chegaralarining tutash nuqtasi to‘g‘risidagi bitim imzolaniishi hamkorlikni yanada rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etuvchi, mintaqaning xalqaro nufuzini oshiruvchi tarixiy voqeadir. Mazkur bitim Davlat chegaralarini delimitatsiya qilish to‘g‘risidagi shartnoma bilan birga barqarorlik va barqaror rivojlanish uchun mustahkam zamin yaratadi, bu esa investitsiyalarni jalb etish va yirik iqtisodiy loyihalarini amalga oshirishning zarur shartidir.

Ahmad TARABEK,
Markaziy Osiyo va Kavkaz
mintaqasi bo‘yicha ekspert va
yozuvchi (Misr):

— O‘zbekiston Prezidentining izchil tashqi siyosati mintaqa mamlakatlari o‘rtasidagi qardoshlik munosabatlarni mustahkamlash va barqaror rivojlanish uchun yagona platformani shakllantirishda asosiy omil bo‘layotir.

O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘iziston rahbarlarining Xo‘jand shahrida bo‘lib o‘tgan uch tomonlama uchrashuviga alohida e‘tibor qaratish kerak deb o‘ylayman. Unda davlat chegaralarining tutash nuqtasi bo‘yicha tarixiy kelishuv imzolandi. Bu qadam Markaziy Osiyoda birdamlik va uzoq muddatli tinchlik timsoliga aylandi. Do‘stlik stelasining tantanali ochilishi mintaqa davlatlarining yaqin hamkorlikda rivojlanish istagini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Prezidentining tashabbuslari tufayli Markaziy Osiyo barqarorlik, farovonlik va yaxshi qo‘shnichilik mintaqasiga aylandi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning siyosati nafaqat mamlakatlar o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlashga xizmat qildi, balki iqtisodiy o‘sish va madaniy almashinuv uchun yangi ufqlarni ochdi.



Derya SOYSAL,
“Diplomatic World” tahliliy markazining
Markaziy Osiyo bo‘yicha eksperti (Belgiya):

— Xo‘jandda O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston yetakchilari uch davlat o‘rtasidagi chegaralarni delimitatsiya qilish jarayonini yakunladilar. Ushbu uchrashuv uzoq va muhim bosqichga yakun yasadi, uning sharafiga uch qardosh davlat o‘rtasidagi mustahkam do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlari ramzi bo‘lgan Do‘stlik stelasini o‘rnatildi.

Shavkat Mirziyoyev 2016-yilda O‘zbekiston Prezidenti etib saylanganidan so‘ng qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik, ishonchli munosabatlar o‘rnatish, xalqaro miqyosda tan olingan chegaralarni rasmiylashtirish jarayoni boshlandi. Bu jarayon mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlashning asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Chegara delimitatsiyasi yakunlanishi va Do‘stlik stelasini o‘rnatilishi O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston o‘rtasidagi tinch va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarni mustahkamlashda muhim bosqich bo‘ldi. O‘zbekiston Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida Markaziy Osiyoda ishonch va barqarorlikni o‘rnatishga faol hissa qo‘shishda davom etmoqda, bu esa, o‘z navbatida, umumiy mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qilyapti.



“Dunyo” AA

O‘ZARO TUTASH UCH ILDIZNI QAYTA BOG‘LAGAN TARIXIY MULOQOT

Nima uchun Xo‘jandga tashrifni tarixiy voqea deyapmiz? Chunki tashrif doirasida ikki va uch tomonlama hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari belgilab olinib, tarixiy ahamiyatga ega kelishuvlar amalga oshirildi. Quyida tashrifning asosiy jihatlariga to‘xtalib o‘tamiz.

Birinchi asosiy jhati — ittifoqchilik munosabatlari rasman kuchga kirdi. Prezidentlar huzurida ikki davlat tashqi siyosat idoralari rahbarlari O‘zbekiston va Tojikiston o‘rtasida Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnoma kuchga kirishi haqidagi bayononmani imzoladi va ratifikatsiya yo‘riqlarini almashdi. Shu asosda o‘tgan yili 18-aprel kuni Dushanbe shahrida bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi ikki tomonlama sammitda imzolangan shartnoma rasman kuchga kirdi.

Ikkinchi asosiy jhati — uch tomonlama sammitda tarixiy kelishuvga erishildi. Xususan, Xo‘jandda bo‘lib o‘tgan sammitda O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘iziston o‘rtasida davlat chegaralarining tutash nuqtasi to‘g‘risidagi tarixiy shartnoma imzolandi. Qo‘shma deklaratsiya qabul qilindi. Bu voqea xalqlarimiz o‘rtasidagi ishonch va do‘stlikni yanada mustahkamlash, farovonligini oshirish, davlatlarimiz o‘rtasida har tomonlama sheriklikni rivojlantirish uchun mutlaqo yangi istiqbollarni ochishga zamin yaratadi.

Uchinchi asosiy jhati — yangi infratuzilma va transport aloqalarini rivojlantirishga kelishildi. Jumladan, tomonlar aviaqatnov va avtobus yo‘nalishlarini kengaytirish, bojxona punktlarini modernizatsiya qilish hamda



Zulayho MAHKAMOVA,
Bosh vazir o‘rinbosari —
Oila va xotin-qizlar
qo‘mitasi raisi

chiqish masalalari muhokama etildi. 2025-yilda ham O‘zbekiston qator yirik xalqaro tadbirlarga mezbonlik qiladi. Jumladan, shu hafta Samarqanda “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti va mintaqadagi umumiy ekologik tahdidlarga bag‘ishlangan Iqlim forumi bo‘lib o‘tadi. Toshkentda Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi ish boshlaydi. Shuningdek, mayda Ko‘rfaz arab davlatlari bilan sammit, sentyabrda esa Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi maslahat uchrashuvi o‘tkaziladi.

“Bugun tariximizda ezgulik va hamjihatlikning yana bir yorqin sahifasi ochildi. Ildizi tutash uch xalq — o‘zbek, tojik va qirg‘izni birlashtirgan, ularning tinchlik va do‘stlik yo‘lidagi azaliy intilishlarini aks ettirgan Do‘stlik stelasining ochilishi nafaqat mintaqamiz, balki butun dunyo uchun ulkan ahamiyatga ega tarixiy voqeadir.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM
O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



DO‘STLIK KO‘PRIKLARI TIKLANDI, ISHONCH MUSTAHKAMLANDI

Davlatimiz rahbarining Xo‘jand shahriga amaliy tashrifi tom ma‘noda tarixiy voqea sifatida qardosh va birodar xalqlar o‘rtasidagi ko‘p asrlik o‘stona munosabatlar solnomasida yangi sahifa ochdi.

So‘nggi yillarda Markaziy Osiyo barqaror taraqqiyot, konstruktiv rivojlanish mintaqasiga aylandi. Albatta, bu jarayonda Prezidentimizning yaqin qo‘shnichilik munosabatlarni mustahkamlash, o‘zaro ishonch va iqtisodiy integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan tashabbuslari muhim ahamiyat kasb etdi.

O‘zbekistonning yangi tashqi siyosat strategiyasi tufayli mintaq do‘stlik va ochiq muloqot muhitiga ega bo‘ldi. Ko‘p yillik bahsli masalalar hal etildi. Savdo-iqtisodiy aloqalar faollashdi. Natijada chegaralar ochildi. Eng muhimi, qulay transport yo‘laklari tiklandi. Xalqlarimiz yanada yaqinlashdi.

Ayni maqsadda uch tomonlama tarixiy uchrashuvda mamlakatlarimiz o‘rtasida transport aloqalarini rivojlantirish borasidagi ishlarni davom ettirish, aviaqatnovlar sonini ko‘paytirish va geografiyasini kengaytirish, chegaralarni hududlardagi shaharlar o‘rtasida yangi avtobus yo‘nalishlarini yo‘lga qo‘yish masalalari bo‘yicha kelishib olindi.

Xalqimizda “kengashli to‘y tarqamas”, degan dono naql bor. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining ayni maqsadga qaratilgan muntazam maslahat uchrashuvi mexanizmi yaratildi. Bu xavfsizlik, ekologiya va suv resurslaridan oqilona foydalanish masalalari bo‘yicha umumiy qarorlarni muvofiqlashtirish imkonini berdi.

Albatta, kelishgan, birlashgan — yaxshi. O‘zbekistonning ochqlik va yaxshi qo‘shnichilik siyosati mintaqada barqarorlikni mustahkamlabgina qolmay, iqtisodiy o‘sish, investitsiyalarni jalb etish va yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirish uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda.

Bugun Markaziy Osiyo sheriklik makoni bo‘lib, unda qardosh va birodar mamlakatlarimiz o‘zaro ishonch va bir-birini qo‘llab-quvvatlash asosida kelajakni birgalikda shakllantirmoqda.

Keyingi yillarda umumiy siyosiy iroda tufayli mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlarda ulkan ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. Xususan, O‘zbekiston bilan Tojikiston o‘rtasida Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risida shartnoma kuchga kirdi. Yaqin kunlarda O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasida ham shunday hujjat imzolaniishi kutilayotir.

Bunday munosabatlarni yo‘lga qo‘yish uchun juda katta qalb, siyosiy iroda bo‘lishi kerak. Qolaversa, bu jarayonda butun mintaqaning birlashuvi katta ahamiyatga ega. Bu mohiyatan yuzaga kelayotgan muammolarni faqat yuzaga va bir-birining manfaatlarini o‘zaro hurmat qilish ruhida tartibga solish uchun asos yaratadi.

Yana bir muhim jihatga to‘xtalib o‘tmochkiman. Bu — xalqlarimiz o‘rtasidagi madaniy tadbirlar, ijodiy festivallar,

xizmat qilmoqda. Navbatdagi shunday tadbirni kelasi yili Farg‘ona shahrida o‘tkazish taklifi bildirildi.

Umuman olganda, Prezidentimizning Tojikistonga tashrifi ikki va uch tomonlama hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga puxta zamin yaratdi. Imzolangan shartnomalar, muhokama qilingan loyihalar va rejalashtirilayotgan xalqaro tadbirlar mintaqaning barqaror taraqqiyoti va xalqlarimiz farovonligini oshirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Bugun tariximizda ezgulik va hamjihatlikning yana bir yorqin sahifasi ochildi. Ildizi tutash uch xalq — o‘zbek, tojik va qirg‘izni birlashtirgan, ularning tinchlik va do‘stlik yo‘lidagi azaliy intilishlarini aks ettirgan Do‘stlik stelasining ochilishi nafaqat mintaqamiz, balki butun dunyo uchun ulkan ahamiyatga ega tarixiy voqeadir.

Ushbu yodgorlik asrlar davomida bir-biriga suyanib, qiyinchiliklarni birgalikda yengib o‘tgan xalqlarimizning qalban va ma‘nan mustarak ekanini yana bir bor tamsil etadi. Mazkur stela faqat marmardan yasalgan obidagina emas, u — xalqimizning ezu orzu-umidlari, yaqin birodarlik va yaxshi qo‘shnichilik timsoili bo‘lgan bebaho meros, tinchlik va barqaror taraqqiyotga intilishining ramzi hamdir. Bunday tashabbuslar nafaqat davlatlararo hamkorlikni mustahkamlaydi, balki xalqlarimiz o‘rtasidagi ishonch va hurmatni yanada oshiradi, yaxshi qo‘shnichilik an‘analarini davom ettirish, umummintaqaviy qadriyatlarini ulug‘lashga undaydi.

Mazkur tarixiy voqea farzandlarimizning ham kelgusida do‘stlik, o‘zaro hurmat va hamkorlik ruhida ulg‘ayishi uchun chin tarbiya maktabi vazifasini o‘tadi. Ular tinch va farovon yurtimizda katta orzular sari intiladi, kelajakka dadil qadam tashlaydi. Biz, o‘zbek xotin-qizlari mintaqada hamisha tinchlik va birdamlikni qo‘llab-quvvatlash, mehr-muruvvat, bag‘rikenglik va ahilik g‘oyalarni tarannum etilishidan nihoyatda baxtiyorlik hisini tuyamiz.

Ushbu do‘stlik abadiy bo‘lsin! Rish-talarimiz yanada mustahkam, kelajagimiz yanada nurafshon bo‘lsin!



O‘ktam OXUNOV,
senator

yoshlar forumlari, sport musobaqalarini muntazam o‘tkazib borishga alohida e‘tibor qaratilayotgan. Bunday munosabat o‘zaro bordi-keldini yaxshilash, sog‘lom raqobat muhitini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlatimiz rahbarining yuksak diplomatiyasi, pragmatik va uzoqni ko‘zlab yuritayotgan tashqi siyosati tufayli bugun mintaqada muhit tubdan o‘zgardi. Chegaralar ochildi ellarni ellarga, dillarni dillarga bog‘ladi. Eng katta o‘zgarishlar va bundan ham baland natijalar hali oldinda. Chunki Markaziy Osiyo bugun nafaqat yagona iqtisodiy makon, balki bir mushga aylanib, taraqqiyot manzillarini hamkorlikda belgilamoqda.



2025-yil 2-aprel, 67-son

JARAYON

YANGI O‘ZBEKISTON



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Dolzarb mavzu



O‘tgan yillarda tashkil etilgan erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarida eksportga qaratilgan bir qator loyihalar amalga oshirildi. Olib va chekka hududlarda ko‘plab yurtdoshlarimiz ishlari bo‘ldi. Prezidentimizning joriy yil 4-martdagi “Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini faoliyatining samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni bu boradagi islohotlarning navbatdagi bosqichi boshlanishiga huquqiy asos bo‘ldi.

40 GA YAQIN MAXSUS SANOAT ZONASI

ENDI FAQAT MAXSUS IQTISODIY ZONA SIFATIDA FAOLIYAT YURITADI

Farmonga muvofiq, endi yangi barpo etiladigan ixtisoslashtirilgan zonalar faqat maxsus iqtisodiy zona yoki sanoat zonasi shaklida tashkil etiladi. Maxsus iqtisodiy zonalarining faoliyat ko‘rsatish muddatiga oid cheklovlar esa bekor qilinadi.

— III Toshkent xalqaro investitsiya forumi va xorijiy investorlar kengashi yig‘ilishlarida erishilgan kelishuvlar natijasida maxsus iqtisodiy hamda sanoat zonalarini faoliyatini rivojlantirish borasida qator qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish zarurati yuzaga keldi, — deydi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi bo‘lim boshlig‘i Uchqun Xudoyqulov. — Mazkur farmon xorijiy investorlarni jalb etishda yurtimizning sarmoyaviy jozibadorligini oshirishga

xizmat qiladi. Asosiysi, farmon bilan maxsus iqtisodiy hamda sanoat zonalarini faoliyatiga aniqlik kiritildi. Shuningdek, 2025-yilda maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini rivojlantirishning asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari belgilandi. Xususan, maxsus iqtisodiy zonalarida 2,3 milliard dollar miqdoridagi investitsiyalarni o‘zlashtirish, eksport qiymatini 1 milliard dollarga yetkazish, ishlab chiqarish hajmining 4,3 milliard dollarga teng miqdorda bo‘lishini ta‘minlash va 12 mingga doimiy yangi ish o‘rinlari ochishdan iborat.

Shu bilan birga, sanoat zonalarida 800 million dollar qiymatidagi investitsiyani o‘zlashtirish, eksport hajmini 512,2 million, ishlab chiqarish hajmini 1,8 milliard dollarga

yetkazish hamda 17 mingga yangi doimiy ish o‘rinlari yaratish ko‘zda tutilmoqda.

Maxsus iqtisodiy zonalar eksportga yo‘naltirilgan loyihalarga ixtisoslashgan bo‘ladi. Maydoni o‘ralgan maxsus eksport zonasi turida ham tashkil etilishi mumkin. Maxsus iqtisodiy zonalaridagi har xil yondashuvni birxillashtirish maqsadida amalda tashkil etilgan besh xil turdagi iqtisodiy zonalar bundan buyon faqat maxsus iqtisodiy zonalar sifatida tashkil etiladi. Ayni paytda mamlakatimizdagi 40 ga yaqin maxsus iqtisodiy, erkin iqtisodiy, chegara oldi, maxsus sanoat zonalarini va texnoparklar endi faqat maxsus iqtisodiy zonalar sifatida faoliyat yuritadi.

Maxsus iqtisodiy zonalar belgilangan chegaralarga ega hamda maxsus huquqiy, soliq

va bojxona rejimi joriy qilinishi mumkin bo‘lgan yer maydonida eksportbop, yuqori texnologik loyihalarni amalga oshirish uchun tashkil etiladi.

— Yana bir muhim jihat shuki, sanoat zonalarini boshqaruvchi direksiylarga qator vakolatlar berildi, — deydi Uchqun Xudoyqulov. — Ayni kungacha amalda auksionga yer maydonlarini chiqarish, loyiha majburiyatlarini belgilash imkoniyati yo‘q edi. Bu esa, o‘z navbatida, salohiyatli tadbirkor va investorlarni tanlash, loyihalarni o‘z vaqtida ishga tushirishda qator qiyinchiliklarga sabab bo‘layotgan edi.

Endi yer uchastkalari, bino va inshootlarni investitsiya majburiyatlarini va muddatini belgilagan holda onlayn auksionga chiqarish sanoat zonasi direksiyasi tomonidan amalga oshiriladigan

bo‘ldi. Bu esa sanoat zonasi direksiyasining kadastro, qurilish bo‘limi va mahalliy hokimliklar bilan bog‘liq qator muammolarini hal etadi va yer berish tartibini soddalashtiradi.

Bundan tashqari, yerni baholash mexanizmlari ham bozor qiymatidan kelib chiqib, Yer kodeksiga asosan belgilanadi. Shu paytgacha bu jarayon auksion orqali amalga oshirib kelingan.

Yer uchastkalari onlayn auksionga kamida 10 yil ijara muddati bilan, investitsiya majburiyatlarini bajarilgandan so‘ng xususiy lashtirish yoki ijara muddatini uzaytirish sharti bilan chiqariladi.

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi maxsus iqtisodiy zonalarini boshqarish bo‘yicha vakolatli organ bo‘ladi. Sanoat zonalarini esa mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari

orqali ularni bojxona rasmiylashtiruvidan o‘tkazish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi.

2028-yil 1-yanvargacha maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini direksiyalari yer solig‘i bo‘yicha hisoblangan summaning bir foizi miqdorida ular tomonidan ijara berilgan yer maydonlari uchun to‘lovni amalga oshiradi.

Farmon bilan bundan buyon tashkil etiladigan barcha maxsus iqtisodiy zonalar davlat mulki bo‘lgan yer maydonida barpo qilinadi. Oldin bunday zonalar fermer xo‘jaliklariga tegishli yoki biror korxona tasarrufidagi yerda tashkil etilgan. Endi bunday amaliyotga chek qo‘yilmoqda.

Yangi maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini faqat infratuzilma mavjud bo‘lgan yoki u bilan ta‘minlash iqtisodiy asoslangan, moliyaviy samaradorligi hisoblangan biznes-reja va master



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

tomonidan boshqariladi hamda ularning faoliyati Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan muvofiqlashtiriladi.

Namangan viloyatida “Namangan” maxsus eksport zonasi tashkil etiladi. 2025-yil 1-iyundan maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari tomonidan mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksportga realizatsiya qilish uchun foydalanadigan import xomashyo, material va butlovchi qismlarni bojxona to‘lovlarini to‘lamagan holda “tovarlarni bojxona hududida qayta ishlash” bojxona rejimiga joylashtirish

reja asosida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlarda tashkil etilishi belgilandi.

Farmonning mohiyati maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan. Shu bilan birga, mamlakatimiz hududlarining ishlab chiqarish, resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta‘minlash, transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Lutfulla SUVONOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

DEVORIY SURAT HAVONI TOZALAB BERYAPTI

TOSHKENT SHAHRIDA HAVONI TOZALAYDIGAN ILK DEVORIY SURAT CHIZILDI

Poytaxtimizdagi ko‘p qavatli binolar devorini turli mavzularni aks ettiruvchi tasvirlar bilan bezatish keyingi yillarda ommalashib boryapti. Toshkent shahri Sergeli tumanida ana shunday devoriy suratlardan yana biri paydo bo‘ldi. Faqat u boshqa rasmlardan mutlaqo farq qiladi. Devoriy tasvir shahar ko‘rkiga ko‘rk qo‘shish bilan birga, unga ishlatilgan noyob bo‘yoqlar yordamida havoni tozalash xususiyatiga ega. Xalqaro maydonda tan olingan ushbu innovatsion texnologiya O‘zbekistonda ilk marotaba qo‘llandi.



Devoriy tasvir Italiyaning “The Blue Planet” kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan noyob “Airlite” bo‘yoqlarida chizilgan bo‘lib, aynan shu bo‘yoq muayyan masofadagi havoni tozalab turadi. Texnologiya murakkab qurilmalarga asoslanmagan. Bo‘yoq tarkibidagi titan dioksidi atmosferadagi ifloslantiruvchi zararli moddalar bilan reaksiyaga kirishib, ularni xavfsiz nitratga aylantiradi. Natijada havodagi zararli modda va chiqindilar sezilarli darajada kamayadi. Bu jarayon quyosh nuri ta‘sirida amalga oshadi. Bo‘yoqning bunday ta‘sirini xuddi momaqaldiroqdan keyin havoning manfiy zaryadlangan ionlar bilan tozalanishi yoki o‘simliklarning havodagi karbonat angidridni yutib, kislorod ajratib chiqaruvchi fotosintez jarayoni kabi tajribi holatlarga qiyoslash mumkin.

2007-yilda qiziq tajriba o‘tkazilgan: Rim shahridagi eng ifloslangan hududlardan biri — Umberto I tunnelini “Airlite” bo‘yoqi bilan qoplash taklif qilindi. Tajribadan avval va keyin tunnelning ifloslanish darajasi tekshirilganida bir oydan keyingi natijalar tunneldagi zararli moddalar miqdori 50 foiz kamayganini ko‘rsatdi. 2024-yildan esa Rim shahri hokimligi shahar binolaridagi ko‘jalik ishlarida “Airlite” bo‘yoqlarini qo‘llash to‘g‘risida qaror chiqardi.

Innovatsion bo‘yoq quyosh nurlining issiqlik tarqatuvchi komponentlarini qaytarib, ortiqcha qizib ketishning ham oldini oladi. Uning bu xususiyati binolarning energiya samaradorligini oshirish hamda shaharlardagi “issiqlik oroli” ta‘sirini kamaytirish orqali haroratni pasaytirishga yordam beradi. Mazkur texnologiya 2019-yilda BM Tining Atrof-

muhit bo‘yicha dasturi tomonidan havoning ifloslanishiga qarshi yordam beradigan to‘rtta innovatsion texnologiya qatoriga qo‘shilib, eng istiqbolli yechimlardan biri sifatida tan olingan. Noyob bo‘yoq beshta xalqaro patent bilan himoyalangan bo‘lib, qator sertifikatga ega.

— Hozir “Airlite” bo‘yoqlari dunyo bo‘ylab shahar devoriy tasvirlaridan tortib, shifoxona interyerlarigacha keng qo‘llanmoqda. Hatto “IKEA”, “Nike”, “Volkswagen” kabi mashhur brendlar o‘z loyihalarida foydalanayapti. TBC Bank mutaxassislari ushbu texnologiya bilan tanishib, uning chindan samarali ekaniga ishonch hosil qilgach, ijtimoiy loyihani yurtimizda amalga oshirishga qaror qildik, — deydi reklama bo‘limi boshlig‘i Sobih G‘ulomov. — Buning uchun poytaxtning Sergeli tumani tanlangani ham tasodif emas. Ayni paytda u Toshkentning eng jadid rivojlanayotgan, aholi zich joylashgan hududlaridan bo‘lib, loyiha orqali ko‘plab insonlarni qamrab olish, odamlarga estetik zavq berish barobarida, hudud havosini yaxshilashga hissa qo‘shish maqsad qilingan. Devoriy tasvirda san‘at va innovatsion texnologiya uyg‘unlashgani zamonaviy shaharsozlik yondashuvlarini ifodalaydi.

Havo uchun yangicha “filtr”

Devoriy suratda sharqona qiyofadagi qizning chinor soyasida turib, toza havodan erkin nafas olayotgani tasvirlangan. Rasmdagi har bir tasvir muayyan ma‘noga ega. Umumiy ko‘rinish sofiqlik, musaffo havo, insonning atrof-muhit bilan uyg‘unligini ifodalaydi. Alohida tasvirlar orqali esa ekologik muammolar

tobora murakkablashib borayotgan asrimizda insoniyat atrof-muhitni asrashga daxldorligi, toza havodan nafas olish o‘z qo‘limizda ekanini anglash mumkin.

Ushbu g‘oya va devoriy surat muallifi — mahalliy rassom Nadejda Riqsiyeva. Toshkentda tug‘ilib o‘sgan bu ijodkor ichki devorlar interyeri hamda binoning tashqi fasadini bo‘yashda katta tajribaga ega. Professional va texnik mahorati ko‘plab asarlarida ko‘rinadi. Loyiha uchun rassomni tanlashda shu jihatlarga e‘tibor qaratildi. Qolaversa, Nadejda taklif qilgan eskiz tashabbuskorlarga ma‘qul keldi. Rassom o‘zi tasvirlar bergan erkinlik, toza havo va tabiat uyg‘unligini devoriy suratda gavdalantirdi.

Shunday qilib, joriy yil martda poytaxtimizning Sergeli tumani Mehriyoyo mahallasidagi ko‘p qavatli bino devorida havoni tozalaydigan ilk tasvir paydo bo‘ldi. Umumiy 250 metr kvadrat qoplamaga ega mural kuniga 50 ta avtomobilidan chiqadigan zararli moddani neytrallab, havoni tozalaydi. Mutaxassislarning aytishicha, “Airlite” bo‘yoqning ta‘sirini uning noorganik mineral tarkibi tufayli uzoq yillar davomida saqlanib qoladi. Innovatsion bo‘yoq atmosfera ta‘sirini va ifloslanishga o‘ta chidamli bo‘lib, havodagi zararli moddalar miqdorini uzoq muddat kamaytirishga yordam beradi. Suratdagi QR-kod orqali esa mazkur devoriy tasvir hamda boshqa ekologiyalar haqida ma‘lumot olish mumkin.

— Odamlar havo tozalanayotganini darrov payqadi. O‘zim ham birinchi kunioyq tasvir o‘rnatilgan joydan 50 metr narida turib havo sifati o‘zgarганиni seydin, — deydi “Mehriyoyo” MFY raisi Dilrabo Abdullayeva. — Mahallamizda shunday surat chizilishi haqida aytilganida juda quvonib, qo‘llab-quvvatlagandim. Chunki bu yerda 6 mingdan ortiq odam istiqomat qiladi, doimiy harakatlanadigan avtotransport vositalari juda ko‘p. Ulardan har kuni qanchadan qancha zaharli gaz chiqadi. Bu o‘z-o‘zidan havoning yomonlashishiga, odamlarning notoza havodan nafas olishiga sabab bo‘lyapti. To‘g‘ri, hozir bunday muammo ko‘plab hududlarda mavjud. Shu bois, zamonaviy chora-tadbirlarni ko‘paytirish, mahallamizdagi devoriy tasvir kabi innovatsion yechimlarni qo‘llash ayni muddao deb bilaman.

Ijtimoiy loyiha yurtimizda Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili doirasidagi faol sa‘y-harakatlarning bir qismi. Qolaversa, rivojlanish ta‘sirida havosining ifloslanish darajasi ortib borayotgan shaharlarni uchun yangicha yechimlardan biridir. Shu bois, loyiha davom etishi va yuqoridagi kabi ekologik devoriy tasvirlar, san‘at asarlari mamlakatimizning boshqa hududida ham paydo bo‘lishi tarafdorimiz. Loyihaga yoshi ijodkorlar, havaskorlarni jalb qilish orqali ijtimoiy ko‘lamini yanada kengaytirish mumkin.

Iroda TOSHMATOVA, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Yangicha yondashuvlar

Bahorgi yumushlar Hafzani bir oz shoshirib qo‘ydi. Yerni shudgorlash, ekin ekish kabi yumushlarga vaqt, imkon topolmay qoldi. Turmush o‘rtog‘i uzoq safarda, o‘zi ish, farzand tarbiyasidan ortmaydi. Bolalariga qildiray desa, ular hali yosh.



XIZMAT KO‘RSATISH QIYMATI

1 MILLIARD SO‘MGA YETADI

Mahalla fuqarolar yig‘ini huzurida servis ko‘rsatuvchi kompaniya ishlayotgani yodiga tushdi. Kompaniya vakillari bilan telefon orqali bog‘lanib, tomonqari shudgorlash, tekislash, ariq ochish xususidagi fikrlarini bayon qildi. Ko‘p o‘tmay, servis xizmatchilari ish qurollari bilan yetib keldi. Hafiza ishdan kelganda 6 sotix maydon shudgorlanib, ekin ekish uchun taxt qilib qo‘yilgandi. Uy bekasi ishchi-xizmatchilar mehnatidan minnatdor bo‘ldi.

Prezidentimiz raisligida shu yil 17-mart kuni ichimlik suv va issiqlik ta‘minoti, mahallalar obodligi va qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektorda aholi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan loyihalarni rivojlantirish, bu boradagi ishlar samaradorligini oshirish, xizmat ko‘rsatish turlarini ko‘paytirish muhimligiga alohida e‘tibor qaratildi. Bu bejiz emas, albatta.

O‘tgan yili tajriba tariqasida mamlakatimizdagi 208 ta mahallada “mahalla servis” kompaniyasi tashkil qilinib, aholiga 23 turda xizmat ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilgan edi. Bu tizim samara berdi. Mahallalar har jihatdan obod bo‘lib, odamlarning og‘iri yengillashyapti.

Bag‘dod tumanidagi “Yuksalish” mahalla fuqarolar yig‘inida tashkil etilgan kompaniya ana shunday istiqbolli loyihalar sirasiga kiradi. Kompaniya tuman hududidagi “Bordon”, “Chek Xitoy”, “Matqulobod” mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi aholi va boshqa ijtimoiy obyektlarga xizmatlarini taklif etib kel-yapti. Dam olish kunlarisiz, 24 soatlik ish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. To‘lovlarini undirishda “Mening uyim” elektron dasturidan foydalanilmoqda. Kompaniya hovlisida hunarmand va buyurtmachilar

uchun kerakli xomashyolar savdosi va ijara xizmati yo‘lga qo‘yilgan.

— Prezidentimiz o‘tgan yili 11-12-iyul kunlari mahallamizda bo‘lib, xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish, servis turlarini ko‘paytirish borasidagi amaliy maslahatli ish ko‘lamini yanada kengaytirish imkonini berdi, — deydi “Yuksalish” mahalla servis kompaniyasi raisi Abdurashid Sirojiddinov. — O‘tgan yilning o‘zida turli yo‘nalishlarni qamrab olgan 500 million so‘mdan ortiq servis ko‘rsatildi. Ayni kunda gilam uyush, quyosh panellari o‘rnatish va servis ko‘rsatish, uvada titish, charxchilik, qurilish havoazalari ijarasi, marosimlar uchun stol-stullar yetkazib berish kabi yangi xizmat turlarini taklif qilyapmiz. Dastlabki hisob-kitoblarimizga ko‘ra, joriy yilda barcha yo‘nalishlarda xizmat ko‘rsatish qiymatini 1 milliard so‘mga yetkazamiz. Bu qo‘shimcha texnika va ish qurollari sotib olish, yangi ish o‘rinlari ochish, xizmat ko‘rsatish geografiasini kengaytirish imkonini beradi.

Mahalla saranjom-sarishta, har jihatdan obod maskana aylangan. Bu yerda chiqindilarni yig‘ish, saralash va olib chiqib ketish tashkil etilgan. Mahalla fuqarolar yig‘ini buyurtmasi asosida hududlarni obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish, ariq va boshqa sug‘orish tizimlarini tozalash, ko‘chat ekish, parvarishlash, ijtimoiy soha obyektlarini obodonlashtirish, kommunal ekspluatatsiya xizmatlari yo‘nalishlarida amaliy ishlar qilinayapti. Natijada mahalla hayot tarzi bilan bog‘liq ko‘plab muammolarga shu yerning o‘zida yechim topilmoqda. Hududda yashovchi usta-duradgor va boshqa kasb egalari servis kompaniyasidagi yaxshi haq to‘lanadigan ishlarga jalb etilyapti.

yuqori baholangan. Endi bunga zarurat qolmadi. Servis kompaniya bu borada o‘z xizmatlarini taklif qilyapti. Ish sifati yuqori, narxi birmuncha arzon. Maxsus savdo do‘koni faoliyati ham yo‘lga qo‘yilgani ehtiyojidan kelib chiqib, mahsulot xarid qilish imkonini bermoqda.

Faqat bugina emas. Kompaniya huzurida buyurtmachilar talabi va istagiga ko‘ra, turfa ko‘rinish va o‘lchovdagi tunuka mahsulotlari tayyorlash, o‘rnatib berish xizmati yo‘lga qo‘yilgan. To‘lov mijozlar talabi va istagi asosida amalga oshirilyapti.

— Yangi qurilgan uy-joylarning tomini yopishda kompaniya xizmatidan foydalandim, — deydi Mo‘minjon Ahmadyorov. — Avvallari bu ishlarni bajarish uchun o‘n chaqirim yo‘l bosib, tuman markazidagi ustaxonalarga murojaat qilganmiz. Bir ishini bajarish uchun ko‘plab ovoragarchilikka duch keldik. Endi hammasi boshqacha. Ustalar — mahalladoshlarimiz, xizmat narxi ham hamyonbop.

Mahalla hududida ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar, imtiyozli auksion orqali yer olganlar tashabbusi bilan 10 gektar yerda “Bir kontur — bir mahsulot” tamoyili asosida 6200 tupdan ortiq bodom ko‘chati ekildi. Yerni ekishga tayyorlash, shudgorlash, chuqur qazish, parvarishlash, zararkunanda va hasharotlardan himoyalash bilan bog‘liq ishlarni mahalla servis kompaniyasi o‘z zimmasiga oladi.

Aholiga ko‘rsatilayotgan xizmat turlarini ko‘paytirish orqali turmush tarzini yaxshilash, farovonligini oshirish yo‘lida tashkil etilgan yangi tizim mahallalarga fayz-u baraka kiritmoqda. Odamlarda ozodalik va daxldorlik madaniyatini kuchaytirib, ustalar va vaqtincha ishtizlar bandligini ta‘minlash imkonini beryapti.

Rasuljon KAMOLOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri



MARKAZIY OSIYONING FAN VA TA'LIM SOHASIDAGI INTEGRATSIYASIDA YANGI BOSQICH



Shohruh DALIYEV, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining birinchi o'rinbosari

Bu mamlakatlar o'rtasidagi ta'lim va fan sohasidagi hamkorlik, avvalambor, mintqa davlatlarining ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi salohiyatini oshirishga yordam beradi. Do'st va qardosh xalqlar orasidagi o'zaro madaniy aloqalar, umumiy til va tarixiy musobaqalar bunga asos bo'ladi. Shuningdek, mintaqadagi mamlakatlar o'rtasida fan, bilim va innovatsiyalar almashinuvi, oliy ta'lim muassasalarining hamkorlikdagi faoliyat yuritishi har bir mamlakatning global raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kundagi siyosiy o'zgarishlar va davlatlararo hamkorlikning faollashuvi Markaziy Osiyoning fan va ta'lim sohasidagi integratsiyasini yangi bosqichga olib chiqishga yordam bermogda. Shu o'rinda 2022-yildan beri o'tkazib kelinayotgan Markaziy Osiyo davlatlari rektorlari forumi ushbu jarayonning muhim qismiga



aylanmoqda. Bu forumlar ta'lim va ilm-fan sohasidagi ishonchli hamkorlik va strategik qarorlarni qabul qilish uchun aniq platforma bo'lib, Markaziy Osiyo davlatlari oliy ta'lim tizimini dunyoga integratsiyalashga xizmat qilmoqda.

2022-yilda Olmaota, 2023-yilda Dushanbe va 2024-yilda Bishkekda o'tkazilgan Markaziy Osiyo rektorlari forumlari mintqa universitetlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlashda muhim rol o'ynadi. Bu forumlar ta'lim va ilm-fan sohasidagi aloqalarni yangi bosqichga olib chiqdi.

Mazkur forumlarda mintqa universitetlari o'rtasida talabalar va professorlar mobilligini, ta'lim sifatini oshirish, oliy ta'lim muassasalari o'rtasida filiallar ochish imkoniyatlari, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, ta'lim dasturlarini takomillashtirish, akademik hamkorlik hamda ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi kabi masalalar muhokama qilindi. Forumlar Markaziy Osiyoning ushbu sohada mavqei mustahkamlash va uni xalqaro miqyosdagi ta'lim xabiga aylantirish uchun yangi yo'llar ochmoqda.

Prezidentimizning Tojikistonga 2018-yil mart oyidagi davlat tashrifi chog'ida

Markaziy Osiyo boy tarixiy, madaniy va iqtisodiy merosi bilan tanilgan, shuningdek, bugungi kunda globallashuv va modernizatsiya jarayonlariga zamonaviy qadamlar bilan qo'shilayotgan mintaqadir. Mintaqadagi mamlakatlar — O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistonning integratsiya va o'zaro hamkorlik yo'lidagi kuchi beqaror kechayotgan dunyoda jiddiy ahamiyatga ega. O'z navbatida, mazkur davlatlar rahbarlarining har biri o'z mamlakatining ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotini ushbu hamkorlik orqali rivojlantirishga qat'iy tayyor ekanini namoyon etmoqda.

Ikki davlat oliy ta'lim va fan sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash maqsadida muhim bitim imzolangani o'zaro aloqalarning yangi bosqichini belgilagan tarixiy voqea bo'ldi. Bu bitim O'zbekiston va Tojikiston xalqlari o'rtasidagi ilmiy aloqalar va ta'lim sohasidagi hamkorlik kuchayishiga olib keldi. Ushbu hujjat ikki davlat o'rtasidagi ta'lim sohasidagi aloqalarni mustahkamlash va ilmiy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda.

So'nggi uch yil ichida ikki mamlakat oliy ta'lim muassasalari o'rtasida 65 dan ortiq hamkorlik kelishuvi va memorandum imzolandi. Ularning ro'yobga chiqarilishi natijasida hozirgi kunda O'zbekistonning 30 ta oliy ta'lim muassasasi Tojikistonning 15 dan ortiq universiteti va ilmiy ta'lim tashkiloti bilan hamkorlik qilib kelmogda.

Bugungi kunda Tojikiston oliy ta'lim muassasalari O'zbekistondagi universitetlar bilan doimiy akademik almashinuvlarga ega. Bu almashinuvlar, universitetlarda leksiya o'qish talabalar va professor-o'qituvchilarning o'zaro amaliyot va tajriba almashishiga yo'l ochmoqda.

Hozir O'zbekiston va Tojikiston oliy ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlikdagi ilmiy-amaliy forumlar va seminarlarda ishtirok etish, o'zaro malaka oshirish, ilmiy tadqiqot ishlari olib borish, stajirovka o'tash oddiy holga aylandi. O'zaro hamkorlikdagi

universiteti Olmaotadagi filiali 2024-yildan o'z ishini boshladi.

O'zbekiston va Turkmaniston olimlari hamkorligida qo'shma ilmiy tadqiqotlar o'tkazilishi milliy va global muammolar yechimi yo'lida yangi yondashuvlarni tatbiq etishda muhim platformaga aylanmoqda. O'zbekiston Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligi hamda Turkmaniston Fanlar akademiyasi tomonidan ilmiy tadqiqot sohasida o'zaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida e'lon qilingan tanlov ikki davlat olimlari o'rtasidagi aloqalarni yanada rivojlantirishga, ilmiy tadqiqotlarni amaliy jarayonlarga tatbiq etishga va yangi texnologiyalarni joriy etishga yo'l naltirilgan.

Tanlov doirasida eng dolzarb va istiqbolli yo'nalishlar qamrab olindi. Energiya tejamlorligi va innovatsion texnologiyalar, tibbiyot va farmatsevtika, biotexnologiya va kimyo, raqamli iqtisodiyot hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kabi sohalarida ilg'or g'oyalari ilmiy muhokamaga qo'yildi. Shuningdek, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, qishloq xo'jaligi sanoatini rivojlantirish, tabiiy ofatlarni oldindan bashorat qilish va ularning oqibatlarini bartaraf etish masalalari ham tadqiqotchilar diqqat markazida bo'ldi. Hozir Turkmaniston Fanlar akademiyasi bilan hamkorlikda tanlab olingan 4 ta istiqbolli loyiha moliyalashtirildi va ular amalga oshirilmoqda. Bu hamkorlik ikki davlat olimlariga ilmiy bilim va tajribalar almashish imkonini berish bilan birga, fan va innovatsiyalar orqali iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga hissa qo'shishga ham yo'naltirilgan.

Markaziy Osiyo davlatlari oliy ta'lim muassasalari orasidagi aloqalar yildan yilga kengayib bormogda. Turli hamkorlik dasturlari, talabalar almashinuvi va o'qituvchilarning tajriba almashinuvi bu sohadagi muvaffaqiyatli amaliy natijalardan biridir. Markaziy Osiyo mamlakatlari fan va texnologiyalar sohasida hamkorlikni yo'lga qo'yishda o'z o'rnini topmogda. Texnologiya va innovatsiyalar sohasidagi aloqalar har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda. Ayniqsa, turizm, energetika, axborot texnologiyalari va boshqa sohalaridagi hamkorlik hamda birgalikdagi loyihalar nafaqat ta'lim tizimini, balki sanoatni ham mustahkamlamoqda. Natijada Markaziy Osiyodagi oliy ta'lim muassasalari hamda ilmiy tadqiqot markazlari yangi ilmiy texnologiyalarni joriy qilishda birgalikda ishlamoqda.

Bugungi kunda fan va ta'lim sohasidagi hamkorlik, ayniqsa, yoshlar uchun katta imkoniyatlar yaratyapti. Talabalarning ilmiy tadqiqotlar, treninglar va amaliy mashg'ulotlarda qatnashishi, zamonaviy bilimlarni o'zlashtirishi uchun keng yo'l ochilmoqda. Bundan tashqari, mintaqaviy oliy ta'lim tizimi global standartlarga moslashmoqda va bu yoshlar uchun xalqaro ish o'rinlarida faoliyat yuritish imkoniyatlarini kengaytiryapti.

Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi fan va ta'lim sohasidagi hamkorlik mintqa ta'lim tizimi, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar sohasidagi salohiyatini yangi bosqichga olib chiqmogda. Bu, o'z navbatida, ularning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantirishga, o'zaro to'g'ri va samarali munosabatlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, mazkur hamkorlikning yanada mustahkamlanishi Markaziy Osiyoning xalqaro maydondagi roli kuchayishiga imkon yaratadi.

Yuksalish pallasi

MAMLAKATNING “OLTIN FONDLARI” “PECHAK LIGASI” UNIVERSITETLARIDA TAYYORLANADI

Ma'naviy yangilanish yo'lidan boryapmiz. Mamlakatning “oltin fondi”ga katta umid bog'langan. Uchinchi Renessans poydevori barpo etilayotgan shu kunlarda navqiron avlod vakillarining ta'lim-tarbiyasiga har qachongidan ko'ra yuksak e'tibor qaratilayotir. Zero, yurt iqtisodiyotining barqarorligi, barcha sohada rivojlangan davlatlar yoshlari bilan raqobatlasha olishi uyg'oq fikrli yigit-qizlarga bog'liq. Ertaga el koriga yaraydigan asl farzandlar eng ilg'or ta'lim tizimi tendensiyalarini o'zida mujassam etgan muhitda kamolga yetadi. Yaxshi yo'lga qo'yilgan ta'lim tizimi sifatli kadrlarni, sifatli kadrlar esa rivojlangan jamiyatni barpo etadi.

Joriy yil 27-mart kuni davlatimiz rahbari huzurida taqdimoti o'tkazilgan iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga oid loyihalardan ko'zlangan maqsad ham shu.

Yurtimizda yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, iqtidorli bolalarni aniqlash, ta'lim jarayoniga ilg'or texnologiyalar, uslublar va xorij tajribasini keng joriy etish, o'g'il-qizlarni o'qitish va tarbiyalashda yaxlit tizim yaratish, iste'dodlilarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish borasida keng imkoniyatlar yaratilyapti. Jumladan, 14 ta Prezident maktabi, 185 ta ixtisoslashgan va 9 ta ijod maktabi tashkil etilgani, ulardagi o'qitish va baholash tizimi 1500 ta umumta'lim maktabida ham joriy etilgani samarasi bugun o'g'il-qizlar erishayotgan yutuqlarda yaqqol ko'zga tashlanmogda. “Yangi O'zbekiston” universitetida iqtidorli talabalar tahsil olmogda.

Yoshlarimizning jahon darajasida bilim olishi uchun zamin bo'lgan ushbu xayrli ishlarni tizimli davom ettirish bugunning muhim talabi.



Xususan, taqdimotda joriy yil sentabrdan xalqaro maktab faoliyatini yo'lga qo'yish rejalashtirilayotgani qayd etildi. Bunga dastlab 8-sinf bitiruvchilari orasidan eng iqtidorli 60 o'g'il-qiz saralab olinishi, ta'lim dasturi xalqaro andoza asosida 3 qismdan — asosiy fanlar, ixtisoslik fanlari, yetakchilik va ijtimoiy faollikni o'rgatuvchi fanlardan iborat bo'lishi nazarda tutilgan. O'quv yili trimestr tamoyili asosida olib borilib, 11 oy davom etadi.

— Bu maktabda o'qitish muddati 3 yil bo'ladi, — deydi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi direktori Alisher Ubdiyev. — Buyuk Britaniya ta'lim tizimiga oid A-level (ilg'or o'rta ta'lim to'g'risidagi) dasturi bo'yicha qilgan ishlarimiz samara bergan. Muhammad al-Xorazmiy va Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktablarda ham xalqaro IB (international baccalaureate) dasturi asosida tajriba to'plab boryapmiz. Yangi xalqaro maktabda dunyo tajribasidan kelib chiqib, xalqaro AP (advanced placement) dasturini tatbiq etishni ko'zlayapmiz. Unda asosiy fanlardan tashqari, ixtisoslik fanlariga ham e'tibor qaratilib, liderlik jamiyati bo'yicha jamoat faolligi, mentorlik va karyera rivojlanishi kabi dasturlarga alohida o'rin ajratilyapti.

Qabul jarayoni uch bosqichdan iborat bo'ladi. Birinchi bosqichda akademik yutuqlar va o'qituvchi tavsiyanomasi, ikkinchi bosqichda test sinovi, matematika, tabiiy fanlar, tanqidiy tafakkur va ingliz tilini bilish darajasi, uchinchi bosqichda esa suhbat va esse yozish, liderlik, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatiga baho beriladi. Ushbu maktabning o'quv dasturlarida har bir o'quvchining portfolyesini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratiladi. Haftalik yuklama 40 soatgacha bo'lishi ko'zda tutilyapti. Bu muassasa maktab-internet shaklida tashkil etiladigani uchun xalqaro tajribada ushbu ko'rsatkichga ruxsat berilgan. Bundan tashqari, keng tanlov fanlar, asosiy fanlar ingliz tilida



o'qitilishi, qo'shimcha ispan, fransuz va nemis tillarini o'rgatish ham nazarda tutilyapti. Har yili real voqealar asosida ilmiy tadqiqotlar o'tkaziladi.

Maqsad — iqtidorli yoshlarni xalqaro tajribani keng, tizimli o'rganishga yo'naltirish, har yili salohiyatli bir-ikki o'quvchimizning nufuzli oliyoghlarga o'qishga kirishi bilan kifoyalanib qolmaslik, ularning safini kengaytirish. Bir yilda yuzlab bitiruvchining eng yaxshi universitetlarga o'qishga kirishini ta'minlash uchun xalqaro maktab loyihasi ishga tushirilyapti.

Prezidentimizning yana bir tashabbusiga muvofiq, yoshlarimizni AQSHning “Pechak ligasi” (The Ivy League) kabi universitetlariga tayyorlash tajribasi yo'lga qo'yiladi. Buning uchun 6 bosqichli Milliy dastur qabul qilinadi.

— “Pechak ligasi”ga kiruvchi Massachusetts texnologiya instituti, Garvard, Yel, Pensilvaniya, Stenford, Princeton, Kolumbiya, Braun, Chikago kabi dunyoning eng nufuzli oliyoghlarda o'qishni orzu qilmaydigan yosh bo'lmasa kerak, — deydi Alisher Ubdiyev. — Zotan, dunyodagi juda ko'p mashhur olimlar, siyosatchilar aynan shu universitetlarning bitiruvchilardir.

Yuqori akademik ko'rsatkichdan tashqari, SAT, TOEFL, IELTS kabi ingliz tili yoki boshqa fanni bilish darajasini ko'rsatuvchi sertifikatlar natijasi, liderlik va tashabbuskorlik, ijtimoiy faollik, kuchli, mazmunli insho, tavsiyanoma xatlari, erta hujjat topshirish, ular bilan yozgi maktab dasturlarida muntazam ishtirok etish universitetlarning asosiy talabi.

“Pechak ligasi”ga kiruvchi universitetlarda tahsil olayotgan talabalarimiz uncha ko'p emas. Yana 3 bitiruvchimiz eng ilg'or 20 talikka kiruvchi Oksford, Kembrij, Kaliforniya universitetida o'qimogda. O'tgan yili 1 bitiruvchimiz Garvard universitetiga grant asosida qabul qilingan edi. Kuni kecha yana bir xushxabar eshitdik: Nukus shahridagi Prezident maktabi o'quvchisi Aydos Kitaybekov AQSHning “Pechak ligasi”ga kiruvchi Braun universitetiga to'liq grant asosida o'qishga qabul qilindi.

Shu yilning fevral oyida esa Guliston shahridagi Prezident maktabining 11-sinf o'quvchisi Asilbek Ashurov dunyo bo'yicha 14-o'rinda turadigan Chikago universitetiga o'qishga qabul qilinib, ushbu oliyoghning to'liq grantini qo'lga kiritgan ilk o'zbekistonlik o'quvchi sifatida tarixga kirdi.

Bunday xushxabarlar epkini qalbni hayajonga, iftixorga to'ldiradi. O'zbek farzandining tafakkur kuchi, ijodiy quvvati hamisha yuqori bo'lgan. Ammo imkoniyat va sharoit, o'zini namoyon etish uchun maydon yetarli emas edi. Bugun yaratilgan imkoniyatlar natijasi o'laroq shu salohiyat egalari dunyo ta'limi sahnasida o'zining munosib o'mini egallayotir.

Iqtidori, maktabda erishgan yutuqlari, egallagan bilimi, ustozlarning qo'llab-quvvatlovi bilan eng nufuzli oliyoghlarda tahsil olayotgan yoshlarimiz bilan qanchalik faxrlanmaylik, dunyoning mashhur universitetlarida tahsil oladigan talabalar sonini yanada ko'paytirish, yigit-qizlarni shunga tayyorlash kun tartibidagi vazifa bo'lib qolaveradi.

Taqdimotda yana bir muhim masala — chet elda o'qigan yoshlarni vatanimizda o'z sohasi bo'yicha munosib ish bilan ta'minlashga ham e'tibor qaratildi. Bu borada “Mamlakat oltin fondi hamjamiyati”ni tuzish taklif etildi. U orqali iqtidorli yoshlar yagona platformada birlashtirildi. Xorijda ta'lim olib qaytganlar uchun imtiyozlar, grantlar, startap dasturlari va boshqa imkoniyatlar yaratilishi yoshlarni bir maqsad va maslak — vatan taraqqiyotiga munosib hissa qo'shish yo'lida birlashtirishi shubhasiz.

“El-yurt umidi” jamg'armasi stipendiatlari, Prezident maktablari, “Yangi O'zbekiston” universiteti, xalqaro maktab bitiruvchilari, milliy dastur ishtirokchilari, har yili jami 4000 ga yaqin iqtidorli yoshni bir platformada hamjamiyatga yig'ish, keyingi avlod bilan uchrashuv, qurultoy tashkil qilish ham rejalashtirilyapti.

Har yili may oyida hamjamiyat qurultoyi o'tkazilib, unda ta'lim islohotlari, iqtidorli yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlar, chet el oliyoghlari tajribasi kabi mavzularda muloqot yo'lga qo'yilishi ko'zda tutilmogda. Bu nafaqat bir kunlik qurultoy, balki haftalik tarzida turli yorqin tadbirlarga boy bo'lishi kutilayotir.

Risolat MADIYEVA, “Yangi O'zbekiston” muxbiri



2025-yil 2-aprel, 67-son



YANGI O‘ZBEKISTON



“KO‘ZLARIMNING OLLIDA DAVRON QIZIL, SORIG‘, YASHIL”



Boboravshan G‘OZIDDINOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Quyida paxsadevori loysuvoq bo‘lgan kulba, unga tutash qilib yo‘lto‘siq (shlagbaum) o‘rnatilgan. Uning ikki yonida askarlar burchug‘i bilan bizga qaraydi. Mashina blokpost yonida to‘xtagach, askarlardan biri kelib, salom berib hujjat so‘raydi. U avvaliga hujjatdagi rasm bilan bizni solishtirib ko‘radi, keyin yukxonani ochishimni aytib, pasportlarimizni paxsadevorning oynasiz tushugidan ichkariga uzatadi. Zum o‘tmay ichkaridagi kishi chaqiradi. Temir eshikdan nimqorong‘i xonaga kirib, unvoni katta askar bilan so‘rashaman.

— Ruxsatnomangiz bormi? — U askarlarga xos jarangdor ovozda so‘roqqa tutadi. Qanday ruxsatnoma olish kerakligini bilmay ajablanaman. U bosqilq bilan tushuntirishga o‘tadi.

— Siz chegara hududga o‘tishdan oldin tuman Ichki ishlar bo‘limiga borib ruxsat olishingiz kerak...

— Cho‘ponlarning uyiga mol ko‘rishga kelyapman, chegaraga bormayman, — deyman kapitanga qo‘lim bilan Bobotog‘ni ko‘rsatib. Tog‘ biz turgan joydan 30-40 chaqirim narida. Tojikiston bilan chegara ham o‘sha yerda. Chegara ilon iziday goh tog‘ning bizga tomonidan, ba‘zi yerlarda uning narigi tomonidan o‘tgan. Ammo undan berida emas. Biz ko‘zlagan manzil esa mana bu past-baland tepalikdan iborat desak o‘rtasida, blokpostdan nari borsa besh chaqirim ichkarida. Shu bois, bu yerlar chegara emas, chegaraoldi hudud, deyiladi. Buni askarlar, ayniqsa, ularga ko‘z-quloq bo‘lgan kapitan yaxshi biladi. Biladiyu, o‘ziga berilgan topshiriqdan tashqariga chiqolmaydi.

— Bilaman, chegaraga yaqin bormaysiz, Safar cho‘ponni yaxshi taniymiz, Abdurahmon akaning otasi, shunaqami? — deydi kapitan. Uning “shunaqa”sidan toshkentlik deb o‘‘layman. Kapitan vodiylilik ekanini bilganimdan so‘ng uni bu yerlarni yaxshi bilmaslikda ayblaganday bo‘laman. Kapitanga bolaligim shu yo‘ldan tog‘ ortiga qatnab o‘tgani, o‘sha tomonga ham biz kabi odamlar yashashi, endi-endi chegaralar yopilganini aytaman. Tag‘in avjim kelib, bitta men ruxsatsiz o‘tganim bilan Bobotog‘ kichrayib qolmasligini ta‘kidlayman. Kapitan kuladi. Uning kulgisida achinishmi yo mehmi, nimadir o‘zgacha ekanini bilaman-u, aniq farqlay olmayman.

— Bilaman, okaginam, vodiya boring, yo‘lining bir tomoni O‘zbekiston bo‘lsa, narigi tomon Qirg‘iziston, bitta ko‘chani kesib o‘tish uchun ham ruxsat kerak, — deydi kapitan qo‘lini yelkamga tashlab va birdan harbiylarga xos qat‘iyat bilan davom etadi. — Bizning nizomda mehribonlik qilish uchun qoida buzish mumkin, degan bandi bo‘lganida jon deb qo‘yib yuborgan bo‘lardim.

Bilamanki, kapitan ahvolimni yurakdan his etib turibdi, ammo xizmat doirasidan tashqariga chiqa olmaydi, chorasiz. U uzr so‘rab tashqariga kuzatib qo‘yadi. O‘titz chaqirimdan ko‘p yo‘l bosib, manzilga yetay deganda majbur ortga qaytamiz. Endi

Esse

Ikki yondagi tepalikda tizza bo‘yi o‘t o‘sgan, kungay betdagi lolaqizg‘aldoqlar alvonrang gilamday ko‘zni oladi. Sariq chechaklar o‘sha yashillikka o‘zgacha chiroy baxsh etgan. Tepalikka qarab chiqayotgan mashina motori bir maromda ovoz chiqarib, olg‘a intiladi. Hamrohim, sinfdoshim Elyor mum tishlaganday mana shu go‘zal manzaraga mahliyo bo‘lgan. Diqqatimni chalg‘itmaslik uchun yo‘lga ko‘z tikaman, zum o‘tmay mashina tepalikni zabt etib, pastga qarab ketgan yo‘lga o‘nglandi.

tizzaga urib o‘sgan yashillik ham, alvonrang “gilam”lar ham g‘amgin ko‘rinadi. Inson kayfiyati qanday bo‘lsa, nima haqida ko‘proq o‘ylasa, dunyo unga ayni shu shaklda quchoq ochar ekan-da deb o‘ylayman.

Shu kunlarda, bayram kunlari dillarni shod qilgan xabarlarini kuzatib, o‘shanda to‘g‘ri o‘ylaganimga yana bir karra amim bo‘ldim. Bu haqda keyinroq... Yurtimizda Navro‘z va Ramazon hayiti shukhi kezeb yurgan bir pallada davlatimiz rahbari 31-mart kuni amaliy tashrif bilan Tojikistonga bordi. Xo‘jand shahrida O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘izistonning mustaqil rivojlanish tarixida ilk bor uch mamlakat davlat chegaralarining tutash nuqtasi to‘g‘risidagi shartnoma imzolandi.

O‘sha kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov uch mamlakat davlat chegaralari tutashgan hududda Do‘stlik stelasini tantanali ravishda ochdilar. Do‘stlik stela si-biriga tirgak bo‘lgan uch qoyaga o‘xshaydi. Ularni bog‘lab turgan belbog‘ — do‘st-birodarlik, ahil ko‘shnichilik rishatasiga qiyos qilinganday go‘yo. Yaqin qo‘shnilar, qarindoshlar orasidagi rishta nihoyatda nozik va ayni dam juda mustahkam bo‘ladi.

Nozikligi shundaki, begona otgan toshidan ko‘ra, qondosh ulotqirgan paxta qattiq tegadi. Mustahkamligi shuki, qanchalik sen-menga bormang, arazlab yuzni ters burmang, og‘ir kunda baribir qondoshlik tortadi, chin dildan uchun hamdard bo‘lasiz. Garchand buni uning o‘ziga sezdimasangiz-da.

Markaziy Osiyo davlatlari ancha yillar chegara masalasida murosaga kela olmadi. Bu ko‘p tushunmovchiliklarga sabab bo‘ldi. Huv o‘shanda chegaraoldi blokpostdan o‘ta olmay qaytganim menga qancha alam qilgan edi. 2000-yillarning boshidagi bu voqeani eslasam, hamon xo‘rligim keladi. Axir o‘sha blokpost atrofi biyday dasht va birorta to‘siq-chegara yo‘q edi. Piyoda odam istalgan joydan narigi tomonga o‘tib ketaverar, faqat ulov uchun qulay yo‘lda askarlar turardi.

O‘shanda jahlim chiqib kapitanga: — Aylanna yo‘ldan o‘tib ketsam, kim bilib o‘tiribdi, — dedim.

— Bu sizning ixtiyoringiz. Lekin u tomonga ko‘rib qolishsa, ruxsatsiz o‘tganingiz uchun avval harbiy qismga, keyin vaziyatga qarab yo‘tumaningizga, yoki viloyatga olib borib, so‘roq-savol qiladi, — dedi u.

O‘shanda g‘alvani sotib olmaslik uchun tinchgina uyga qaytgan, yo‘l-yo‘lakay “Nega endi chegaralarni mahkamlab, qo‘rqib yashashimiz kerak? Nima uchun Toshkentga borsam “propiska” ko‘rsatishim, molimni boqayotgan cho‘pon holidan xabar olish uchun ruxsat so‘rashim kerak?”, deya o‘ylagan edim.

Hozir o‘sha olis xotiralarni eslayapman-u, ko‘z oldimga eski hovlimiz keldi. Otamning ukasi Abdurjabbor akam biz bilan yon qo‘shni yashardi. Akam anchayin sodda, ana shu soddaligi sabab ishonitirish oson edi. Boz ustiga, o‘sha soddalik haqqini birovga osonlikcha berib qo‘ymaslik va o‘jarlikka omixta bo‘lgan edi. Bu fitna chiqarib quvonadigan kimsalarga qo‘l kelardi. O‘sha vaqtda ham o‘tkinchi kimsalardan biri nimadir degan, otam uyda yo‘q mahali akam kelib buni onamga aytgan edi. Ana shu aytish asnosida tug‘ilgan tushunmovchilik

ikki oraga sovuqlik tushirdi. Tabiiyki, biz aka-ukalarning bolalari ham kek saqlagich bo‘ldik.

Qarindoshning kek saqlashi ham o‘ziga xos. Na do‘stga, na dushmanga o‘xshaydi. Akam yo‘limdan chiqsa, salom beraman, indamay bosh chayqab o‘tib ketadi. Olisdan biror mehmon kelsa, uyimizga akam ham keladi, odatdagiday salom-alik, gurgung bo‘ladi. Mehmon ketgach, o‘sha-o‘sha kek...

Ana shunday kunlarning birida onam saharlik qilish uchun uyg‘otar ekan: “Tur, bolam, ertaga yana nimaga uyg‘otmadingiz, deb janjal qilma, ro‘za tutamiz”, deydi. Yuz-qo‘limni yuvib, ichkariga kirganimda otam allaqachon dasturxon boshida o‘tirib choy ichar, oldida non to‘g‘ralgan kosadagi ovqat yarimlab qolgan edi. Otam meni ko‘rishni bilan onamni so‘roqqa tutdi.

— Abdurjabbor saharlikka uyg‘onganmi? — dedi va javobni eshitib menga o‘shqirdi. — Bor, akangni turg‘izib kel.

Borib akamni chaqirdim. Ichkaridan ovoz eshitilgach, jimgina ortga qaytdim. Uyga kimasimdan yangam oshxona chirog‘ini yoqdi. Izma-iz ikki kun shu hol takrorlangach, shom mahali yangam o‘choq boshida turib



meni chaqiradi. Istar-istamas o‘sha tomonga yuraman. Yangam ovqat to‘la kosani tutqazib, uylaringga olib bor, deydi.

Yarash oshi degani shu. Ro‘za, saharlik bahona oradagi kek ko‘tariladi. Yana avvalgiday yashay boshlaymiz. Endi akamni ko‘rganimda hech ikkilanmay, ovozimni baralla qo‘yib salom beraman. Akam alik olib, qulog‘imdan buraydi, hazil ekanini bilib, yolg‘ondan yig‘laganday bo‘laman. Keyin o‘z-o‘zidan bola qalim quvonchga to‘ladi. Endi o‘ylab ko‘rsam, qayg‘uli kunlarni bolayurak tezroq fahmlar, ana shu hissiyot uning nozik qalbiga ko‘proq ta‘sir etar ekan. Bugun qo‘shni davlatlar bilan munosabatimizni matbuotda ko‘p targ‘ib etamiz. Quvonarlisi, bu ijtimoiy tarmoqlarga ham ko‘chgan. Har bir mamlakatning ziyolilari chiqishlarida ahillikka chorlamuqda. Bunday munosabat, vaziyatni ko‘rib, eshitib o‘sayotgan bolayuraklarga bizdan ko‘ra ko‘proq ta‘sir etadi, degan o‘y ertangi kunga ishonch beradi.

Aytgancha, akamning qo‘lidan “omon” chiqqach, uyga chopaman. Kayfiyatim yaxshi bo‘lgan chog‘larda she‘r o‘qigim keladi. Muk tushib, kitob varaqlayman:

“

OXIRGI YILLARDA
BIZ DO‘STLIK, TENG
QO‘SHNICHILIK, AHILLIK
HAQIDA KO‘P GAPIRDIK.
SHU YO‘LDA AMALIY
ISHLAR QILINDI. ULAR
HAQLI RAVISHDA E‘TIROF
ETILMOQDA. NATIJA ESA
QUVONARLI, IQTISODIY
HAMKORLIK YUQORI
KO‘RSATKICHGA CHIQDI.
MAMLAKATLARIMIZ ORASIDA
TURIZM, TOVAR AYLANMASI
BILAN BOG‘LIQ RAQAMLAR
KESKIN OSHDI. BU ODDIY
ODAMLAR HAYOTIDA O‘Z
AKSINI TOPMOQDA.

“Qo‘llarim ko‘ksimda, betinch, betoqat, Ta‘zimlar qilurman senga ushbu dam. U — menmi, u — senmi, kim bo‘lma, faqat Senga insof bersin, uchinchi odam”. O‘zbekiston Qahramoni, xalqimizning suyuqli shoiri Abdulla Oripovning she‘ri o‘qir ekanman, yon-atrofdan o‘sha uchinchi odamni axtaraman. Bizning araz-ginalarga o‘sha kimsani aybdor deb bilaman. Axir

akamni gigijlagan o‘sha kimsa. Ammo shu gapni eshitgach, mulohaza qilmagan akam, qaynukasi bilan sen-menga borgan onam-chi? Ular ham bu ziddiyatga teppa-teng hissa qo‘shmaganmi? Hey, birodar, adolat degani shunday — bir qarashda shavqatsiz, ammo ayni haqiqat bo‘lgan savollarni oldingizga qo‘yar ekan. Buni Markaziy Osiyo davlatlarining keyingi yillardagi o‘zgarishlaridan ham ko‘rdik, bildik. Achchiq savollarga tik qaradik, har bir tomon ayni tan olganday xatolarni tuzatish tarafdori bo‘ldi. Natija esa quvonarli...

Bugun otam ham, Abdurjabbor akam ham chin dunyoga ketgan. Yoshim ulg‘aygach bildim, yangam ham, akam ham doim bizga yomonlik istaydigan odamlar emas ekan. Chunki ota-onam ham bir qadar tajriba oshirgan, masalalarni og‘ir-bosiqlik bilan hal qilishga o‘tgan edi. O‘ylab ko‘rsam, Markaziy Osiyo davlatlarining munosabati otam va uning to‘rt ukasi o‘rtasidagi aloqalarga juda o‘xshar ekan. Hozir ulardan faqat bittasini misol qildim, xolos...

Yangi O‘zbekistondagi o‘zgarishlar shamoli bizga umid g‘unchalarini berdi. O‘sha vaqtning o‘zida Markaziy Osiyo davlatlari bilan ham munosabatlar o‘zgara

boshladi. Dastlab viza rejimi bekor qilindi. Birgina qo‘shnilar bilan viza rejimi borligi qanchadan qancha odamlar taqdirini o‘zgartirib yubormadi, deysiz!

Hujjat olish azobi, uzoq kutish vaqti sabab qarindoshlar to‘y tugul, o‘z ota-onasining azasiga ham qatnasha olmadi. Vaholanki, ular piyoda borsa ham ikki soatda yetadigan masofada yashardi. Bir safar ishdan qaytib borsam, onam yig‘laguday ahvolda o‘tirgan ekan. O‘shanda endigina Toshkent viloyatiga ko‘chib kelgan, “propiska” masalasi xunob qilayotgan payt edi. Avvaliga uyga yana uchastka noziri kelib ketibdi deb o‘yladim. Bilsam, masala boshqacha ekan. Xolam Tojikistonda yashaydi. Qizi Toshkentga kelin bo‘lgan. Ammo fuqarolikqa qabul qilinmagan edi. Vizasini yangilash uchun Tojikistonga borib kelishi kerak bo‘lgan. Emizikli bolasi O‘zbekistonda tug‘ilgani uchun uni o‘zi bilan olib keta olmagan. Xullas, qaynona emizikli bolani olib qolgan, kelin uzog‘i uch kunda qaytish rejasini bilan Tojikistonga ketgan. Bormasa, taqiq olib chiqarib yuborilishi mumkin. Keyin qaytib O‘zbekistonga kela olmaydi. Bu turmushdan ajraldi, degani axir!

Nimadir bo‘ladi-yu, hujjat chiqishi bir oyga cho‘ziladi. Ana shu oy ona-bola uchun yillarga tatigan. Emizikli bola momoning qo‘lida, ona u tomonga huvillagan bag‘rini xaxga bergan...

Onam shuni eshitgan, endi jiyanim Tojikistondan chiqishga ruxsat oloimas, turmushi nima bo‘ladi, degan qayg‘udan ko‘z yoshi qilib olgan ekan. “Xavotir olmang, qo‘yib yuboradi”, dedim onamni yupatish uchun. Ammo bu gapga o‘zim ham ishonmadim. Yuragimda nimadir chirt etib uzilganday bo‘ldi. Yana o‘sha, blokpostdan o‘ta olmay alam bilan ortimga qaytganimdagi kabi savollar qiyndi: matbuotda qardosh xalqlar deymiz-u, nega endi chegaralarni mahkamlab qo‘rqib yashashimiz kerak? Ha, mamlakat chegarasi mustahkam bo‘lishi xavfsizlik uchun muhim. Ammo bu bordi-keldi qilishimizga to‘siq bo‘lmasin-da! Nega nomini eshitgach, shunday ham mamlakat bormi, deyidigan joyga vizasiz bora olamanu, yon qo‘shni davlatga o‘tish uchun ruxsat, navbat kutaman?!

Bu savollarga tayinli javob yo‘q edi. Ana shu javobsizlikning o‘zi chegaralarimizdagi bunday rejim mantiqsizlik ekanidan dalolat berardi. Mantiiqqa suyanmagan, asliyatga zid har qanday qarash yo‘qlikka mahkum ekanini bilishimiz uchun uncha ko‘p vaqt kerak bo‘lmasdi.

2017-2018-yillarda O‘zbekiston — Qirg‘iziston davlat chegaralari to‘g‘risidagi shartnoma, O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmaniston o‘rtasida davlat chegaralarining tutash nuqtasi to‘g‘risidagi shartnoma, O‘zbekiston va Tojikiston o‘rtasida chegara uchastkalari bo‘yicha shartnoma imzolandi. Bu o‘z-o‘zidan sodir bo‘lgani yo‘q. Yangam bir kosa ovqatni uzatib, o‘rtadagi sovuqlikni ko‘targani kabi avval mamlakatlari o‘rtasidagi hamkorlik masalalari jiddiy ko‘rib chiqildi. Yurtimizda inson qadri uchun deya boshlangan o‘zgarishlar uzoq yillardan beri sarson yurgan yurtdoshlarimizga fuqarolik olish imkonini berdi. Qanchadan qancha uylar quvonchga to‘ldi.

Ayni dam mavjud geosiyosiy vaziyatdan kelib chiqib, “Bizning kuchimiz — birlik

va ahillikda, qudratimiz — Vatanga mehr va sadoqatda, yutug‘imiz — o‘zimizga bo‘lgan yuksak ishonchimizda!” ekanini e‘tirof etildi. Yuqorida aytganimizday, bunday ahillik mamlakatlar rivoji qo‘shnilarga ham bog‘liq ekanini tan olindi va bu boradagi kamchiliklarni tuzatish yo‘liga o‘tili. Natijada Do‘stlik stelasini singari Markaziy Osiyo ruhi, degan qoya qad rostladi. Bugun xalqaro hamjamiyat Markaziy Osiyoga yaxlit mintaqa sifatida qarashni boshladi.

Yuqorida odam nima haqida ko‘p o‘ylasa, dunyo unga shunday quchoq ochishini aytgan edik. Bahorning hozirgiday sururli kunlarida yana o‘sha dasht, tepaga qarab o‘rlagan yo‘l esimga tushdi. Eshitdim, bayram arafasida Surxonda ham yomg‘ir yog‘ibdi. Demak, donishmand qirlar yana baraka libosini kiyib, Navoiy bobomiz ta‘rif bilan aytganda, dunyo qizil, soriq, yashil tusga burkangan.

Hazrat Navoiy muhabbat, yor vasli orqali hayot suratini chizar ekan, uning turfa bo‘yog‘iga ishora qilib: “Ko‘zlarimning ollida davron qizil, sorig‘, yashil”, deb yozadi. Odatda qizil rangni taqiq, sariqni ogohlik va yashilni yaxshilik ma‘nosida qabul qilamiz. Aslida, bu ranglar boshqa ma‘no kasb etadi. Masalan, ko‘pincha qizil yo‘shqin hayotni, sariq umidni ifodalaydi. Yashil esa nafaqat yaxshilik, balki o‘shish-unish va ma‘naviy komillik timsoli hamdir.

Hozir Markaziy Osiyo qirlari, tog‘lari o‘shanday tus olgan. Alvonrang lolaqizg‘aldoqlar ko‘zni oladi, sariq chechaklar qirlarga ko‘rk berib, yashil gijohlar tizzaga urgani! Bunday vaqtda quchoq‘ingni keng ochib qirlar osha hayqirgini, quvonchingni boshqalarga ulashgini keladi. Bugun biz nega chegaralar tamlangan, nima uchun tug‘ishganimni emin-erkin borib ko‘ra olmayman, deya o‘ylamaymiz. Bahorning ilk chechaklari bo‘y cho‘zgan mahaldayoq bunday savollar esdan chiqqan.

Oxirgi yillarda biz do‘stlik, teng qo‘shnichilik, ahillik haqida ko‘p gapirdik. Shu yo‘lda amaliy ishlar qilindi. Ular haqli ravishda e‘tirof etilmuqda. Natija esa quvonarli, iqtisodiy hamkorlik yuqori ko‘rsatkichga chiqdi. Mamlakatlarimiz orasida turizm, tovar aylanmasi bilan bog‘liq raqamlar keskin oshdi. Bu oddiy odamlar hayotida o‘z aksini topmuqda.

Madaniy aloqalar ham yuksaldi. Masalan, Tojikiston yozuvchilari O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga qabul qilindi yoki aksi, ustoz ijodkorlarimiz Qirg‘iz Respublikasining yozuvchisi, degan maqomini oldi. San‘atkorlar qo‘shni davlatlarda xalq artisti, degan unvonlarga munosib ko‘rildi. Bunday do‘stlik xuddi yangam bergan bir kosa oshday mamlakatlarga ilqlik olib kirdi. Biz bugun bir-birimizga raqobatchi emas, hamkorlikda katta kuchga aylanayotgan yaxlit mintaqa kayfiyatida yashay boshladik. Xalqaro maydonda bir-birimizning sportchilarimizni o‘z yurtdoshimiz kabi qo‘llab-quvvatladik. Yutuqlardan birgalikda quvondik, qo‘shiqlar kuyladik. Sodda qilib aytganda, mehr, do‘stlik haqida o‘yladik. O‘zimiz o‘zgardik va dunyo ham bizga o‘shanday mehr bilan quchoq ochishni boshladi. Ha, birodarlar, odam nima haqida ko‘p o‘ylasa, dunyo unga shunday quchoq ochar ekan.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatl chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 446.
36811 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Sardor Tolliboyev
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilmiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘za yakuni — 01:55 Topshirildi — 02:20

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e‘lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.